2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 89 (1150), 2024-yil 9-may, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

VATAN FIDOYILARI XOTIRASI XALQIMIZ QALBIDA MANGU YASHAYDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-may — Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g‘alabaning 79 yilligiga bag‘ishlangan marosimda ishtirok etdi.

Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh g‘oyasini tashkil etadi.

Bu jihatlar Ikkinchi jahon urushi yillarida Vatan va xalq ozodligi yo‘lida mardlik va jasorat namunasini ko‘rsatib, jang maydonlarida jonini fido qilgan ota-bobolarimiz, mustaqillik yillarida xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish hamda o‘z xizmat burchini ado etish yo‘lida halok bo‘lgan jasur harbiylarimiz xotirasini abadiylashtirish, urush yillarida katta qiyinchiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o‘tgan, front ortida fidokorona mehnat qilgan faxriylarimizga g‘amxo‘rlik va e’tibor ko‘rsatish borasidagi ishlarda ham namoyon bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Toshkent shahrida xalqimiz jasoratining yorqin ramzi sifatida bunyod qilingan muhtasham G‘alaba bog‘i yodgorlik majmuasi qisqa vaqt ichida qutlug‘ ziyoratgohga aylandi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Aziz vatandoshlar, muhtaram faxriylar!

Bugungi shonli bayram — 9-may — Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g‘alabaning 79 yilligi munosabati bilan mo‘tabar faxriylarimizni, ko‘p millatli butun xalqimizni samimiy muborakbod etib, barchangizga o‘zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Ushbu qutlug‘ kunda insoniyat tarixidagi eng dahshatli urushda jasorat ko‘rsatib, bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolgan qahramon ota-bobolarimiz hamda front ortida mardona mehnat qilib, g‘alabani ta’minlashga munosib hissa qo‘shgan mard va olijanob yurtdoshlarimiz xotirasiga yuksak hurmat-ehtirom bajo keltiramiz.

Jang maydonlaridan omon qaytib, mamlakatimiz ravnaqi yo‘lida fidokorona xizmat qilgan, bugungi kunda ezgu duolari bilan hayotimizning fayz-u farishtasi bo‘lib kelayotgan qadrli urush va mehnat faxriylariga cheksiz tashakkurimizni izhor etamiz.

Ayni vaqtda mustaqillik yillarida Vatanimiz ozodligi, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish hamda o‘z xizmat burchini ado etish yo‘lida halok bo‘lgan jasur harbiylarimiz xotirasini minnatdorlik bilan esga olamiz.

Qadrli do‘stlar!

Bugun barcha shahar va qishloqlarimizda o‘tkazilayotgan tadbirlarda bu mudhish urush el-yurtimiz uchun qanday mislsiz talafot va musibatlar olib kelganini yana bir bor yodga olishimiz tabiiydir. O‘sha og‘ir yillarda frontga safarbar etilgan **1 million 950 mingdan** ziyod o‘zbekistonlik jangchilardan **538 mingdan** ko‘prog‘i halok bo‘lgani, **158 mingdan** ortig‘i bedarak yo‘qolgani, **870 mingdan** oshig‘i turli jarohatlar olgani, **60 ming** nafardan ziyodi esa nogiron bo‘lib qaytgani bu g‘alaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ana shu qirg‘inbarot urush xalqimiz qalbida qoldirgan bitmas jarohatni, oradan shuncha vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, hamon unutib bo‘lmaydi.

Urush davrida **214 ming** askar va ofitserlarimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangani, ularning **301 nafari** Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, **70 nafari** uchala darajadagi “Слава” (“Shuhrat”) ordeniga sazovor bo‘lgani biz uchun, hech shubhasiz, buyuk g‘alabaning eng yorqin sahifalarini tashkil etadi.

Metin irodali xalqimiz o‘sha tahlikali yillarda front ortida sabot va matonat bilan mehnat qildi. Sanoat korxonalarining faoliyati front ehtiyojlari uchun yo‘naltirildi. Urush alangasi ichida qolgan hududlardan mamlakatimizga 170 dan ortiq zavod va fabrika ko‘chirib keltirildi va qisqa muddatda ularning faoliyati qayta tiklandi. El-yurtimiz front uchun juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar yetkazib berdi.

O‘zbekiston aholisi 1941-1943-yillarda mudofaa fondiga **475 million** rubldan ortiq mablag‘ni, **22 million** rubllik qimmatbaho shaxsiy buyumlarini ixtiyoriy ravishda topshirgani g‘alabani yaqinlashtirishga yana bir muhim hissa bo‘lib qo‘shildi.

Xalqimiz yuksak odamiylik fazilatini namoyon etib, urush hududlaridan evakuatsiya qilingan **1 million 500 mingga** yaqin insonga boshpana berdi. Ota-onasidan judo bo‘lgan **250 ming** nafar yetim bolalarga mehr-oqibat ko‘rsatib, so‘nggi burda nonini ham ular bilan baham ko‘rdi.

Aziz vatandoshlar!

Azim poytaxtimiz Toshkent shahrida xalqimiz jasoratining timsoli sifatida bunyod qilingan muhtasham “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi qisqa vaqt ichida qutlug‘ qadamjoga aylandi.

Shu kungacha bu yerga **2 million 200 ming** nafardan ziyod ziyoratchi tashrif buyurib, uni katta qiziqish va e’tibor bilan tomosha qilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Majmua jamoasi tomonidan **ellikka yaqin** kitob-albom va monografiyalar, noyob hujjatlar to‘plamlari yaratilib, hozirga qadar noma’lum bo‘lgan yuzlab tarixiy faktlar aniqlanib, jamoatchilikka yetkazildi.

“Bobomni izlayman” loyihasi doirasida urushda ishtirok etgan **2 million nafarga** yaqin vatandoshlarimiz ro‘yxati shakllantirildi. Yurtdoshlarimizdan kelib tushgan **300 dan** ziyod murojaatlar bo‘yicha urushda bedarak ketgan **200 nafar** jangchining taqdiriga oid muhim ma’lumotlar to‘plandi.

Muhtaram do‘stlar!

Bugungi bayram munosabati bilan jonajon O‘zbekistonimizda xotira marosimlari, turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, “uch avlod uchrashuvlari” o‘tkazilmoqda. Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, harbiy qismlar rahbarlari ishtirokida urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining oila a’zolariga tabrik va sovg‘alar topshirishga bag‘ishlangan marosimlar tantanali vaziyatda o‘tkazilmoqda.

Muhtaram urush faxriylari xalqimizning doimiy e’tibori va e’zozida bo‘lib kelmoqdalar. Jumladan, yolg‘iz yashayotgan urush va mehnat faxriylari, istiqlolimiz himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning uy-joylari ta’mirlanib, obod qilinmoqda. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga patronaj xizmati va zarur tibbiy muolajalar ko‘rsatilmoqda. Ular o‘z xohishlariga ko‘ra sanatoriylarda davolanmoqda.

Hech shubhasiz, biz bugungi ozod va erkin hayot uchun aziz jonini ayamasdan kurashgan bunday ulug‘ insonlar oldida doimo qarzdormiz, ular uchun bundan buyon ham barcha sharoitlarni yaratib beramiz.

Hozirgi g‘oyat murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, farzandlarimizni turli zararli ta’sirlardan himoya qilish, bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do‘stlik va ahillikni asrashdek o‘ta muhim vazifalarni bajarishda qahramon faxriylarimizning jasorati, shonli an’analari biz uchun hamisha ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Biz ulardan ruh va kuch olib, Vatan himoyachilari, tinchlik posbonlari, Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari bo‘lishdek yuksak burchimizni albatta sharaf bilan ado etamiz.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Siz, azizlarni bugungi ulug‘ ayyom bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Yurtimiz tinch, xalqimiz doimo omon bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI YOIINING YUBILEY SAMMITIDA ISHTIROK ETDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-may kuni Moskva shahrida kuzatuvchi davlat rahbari sifatida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining yubiley majlisida ishtirok etdi.

Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan raisligida o‘tgan uchrashuvda Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, kuzatuvchi davlat rahbari sifatida Kuba Respublikasi Prezidenti Migel Dias-Kanel, Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi hay’ati raisi Bakitjan Sagintayev hamda mehmon sifatida MDH bosh kotibi Sergey Lebedev qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, ustuvor yo‘nalishlarda qo‘shma dasturlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida Vladimir Putinni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti lavozimiga kirishgani bilan tabrikladi. Yig‘ilishning barcha ishtirokchilarini Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaning 79 yilligi va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi ta’sis etilganining o‘n yilligi bilan qutladi.

O‘zbekiston yetakchisi bugungi sharoitda mamlakatlarimiz savdo-iqtisodiy aloqalarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini ilgari surish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar o‘sishi uchun sharoit yaratish birinchi darajali ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

O‘tgan oyda Toshkentda muvaffaqiyatli o‘tgan “Innoprom” an’anaviy xalqaro ko‘rgazmasi shunday hamkorlikka ijobiy misol sifatida qayd etildi.

— Bugun ushbu forum O‘zbekistonning Rossiya va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqidagi boshqa davlatlar bilan biznes muloqotini rivojlantirish uchun samarali platformaga aylandi, — dedi Prezident.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY YEVROOSIYO IQTISODIY KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Muhtaram hamkasblar!

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Avvalambor, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti lavozimiga kirishgani munosabati bilan hurmatli Vladimir Vladimirovich Putin nomiga yo‘llangan samimiy qutlovlar va ezgu tilaklarga qo‘shilaman.

Saylovchilar yuqori faollik bilan ishtirok etgan mazkur saylovlarda erishgan ishonchli g‘alabangiz ko‘p millatli Rossiya xalqining Sizga bo‘lgan yuksak ishonchini, Siz olib borayotgan siyosat va mamlakatni modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli dasturlarni qat’iy qo‘llab-quvvatlashini yana bir bor namoyon etdi.

Sizga kelgusida yanada ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Ushbu majlisda ishtirok etayotgan barcha hamkasblarimizni muhim sana — fashizm ustidan qozonilgan Buyuk G‘alabaning 79 yilligi hamda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi tashkil etilganining o‘n yilligi bilan qutlayman.

Moskvaga uchishdan oldin men Ikkinchi jahon urushida qatnashgan faxriylarimiz bilan uchrashdim. Ming afsuski, ularning soni yildan-yilga kamayib bormoqda. Ular sizlar orqali urush va front ortida mehnat qilgan barcha faxriylarga samimiy tabriklarini, birodar xalqlarimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq so‘rab, bildirgan tilaklarini yetkazishni iltimos qilishdi.

Sizlarga ulkan mamnuniyat bilan faxriylarimizning iltimosini yetkazaman.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Hozirgina hamkasblarimning nutqlarida dunyodagi bugungi murakkab vaziyatga baho berildi, zamonaviy tahdidlarni bartaraf etish uchun hamkorlikni yanada kengaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Yuzaga kelgan hozirgi sharoitda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, kooperatsiya loyihalarini ilgari surish hamda o‘zaro investitsiyalarning o‘sishi uchun sharoit yaratish birinchi darajadagi vazifa, deb hisoblayman.

O‘tgan oyda Toshkentda muvaffaqiyatli o‘tgan an’anaviy “Innoprom” xalqaro ko‘rgazmasi bunday hamkorlikka yorqin misoldir. Ko‘rgazmada mamlakatlarimizning ikki mingdan ortiq yetakchi korxonalari qatnashdi, yangi kooperatsiya loyihalari bo‘yicha yuzlab kelishuvlarga erishildi.

Bugungi kunda ushbu xalqaro forum O‘zbekistonning Rossiya va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a’zo boshqa davlatlar bilan biznes sohasidagi muloqotlarini rivojlantirishda samarali platformaga aylandi. Biz ushbu muloqot maydonini yanada kengaytirish, ishtirokchilar sonini oshirish, jumladan, Kuba, Eron, Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Mo‘g‘uliston, Vyetnam va Indoneziya kabi hamkor mamlakatlar kompaniyalarini bu jarayonga jalb etish niyatidamiz.

Umuman, O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomidagi uch yillik hamkorligi davrida o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 60 foizga oshdi. Bunga, avvalambor, sanoat mahsulotlarini yetkazib berishni ko‘paytirish hisobidan erishildi. Ayni vaqtda milliy valyutalardagi hisob-kitoblar ulushi ortib bormoqda.

Mingdan ziyod qo‘shma korxona va loyihalar ishga tushirildi. Yuk tashish hajmi o‘smoqda, muntazam aviaqatnovlar soni ikki barobar ko‘paydi.

Davomi 2-betda

Prezidentimiz tashabbusi bilan G‘alaba bog‘i hududida yana bir majmua — Mustaqillik fidoyilari xiyobonini tashkil etish rejalashtirilgan. Tashrif chog‘ida ushbu majmua loyihasi taqdimot qilindi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 9-may, 89-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY YEVROOSIYO IQTISODIY KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan birgalikda yuqori darajadagi Ishchi guruhning uchta yig‘ilishi o‘tkazildi, Qo‘shma hamkorlik rejasidagi tadbirlar to‘liq amalga oshirildi.

Biz, shuningdek, savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijorat, iqlim o‘zgarishi sohalaridagi tarmoqlarga oid loyiha va dasturlarga ham qo‘shildik.

Muhtaram hamkasblar!

Mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan o‘zaro manfaatli hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishga ruxsat bergaysiz.

Birinchidan, O‘zbekiston YOIIni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari doirasida amaliy sheriklikni kengaytirish va tarmoqlarda ko‘p tomonlama hamkorlik loyihalarini amalga oshirishda yanada faol ishtirok etishdan manfaatdor.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi o‘rtasida o‘rta muddatdagi istiqbolga mo‘ljallangan Qo‘shma tadbirlarning yangi kompleks rejasini tayyorlashni taklif etamiz.

Ishonchim komilki, kuzatuvchi davlatlarning loyihalarda to‘laqonli ishtirok etishini tartibga soladigan mexanizmning tezroq qabul qilinishi ushbu hujjatni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a’zo mamlakatlar bilan o‘zaro savdo-sotiqdagi to‘siq va cheklovlarni birgalikda bartaraf etishga tayyor ekanimizni tasdiqlaymiz.

2009-yilda qabul qilingan Tovarlar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash qoidalariga O‘zbekistonning qo‘shilish jarayoni boshlandi.

Bojxona chegaralarimiz orqali olib o‘tiladigan tovar va transport vositalari haqidagi ma’lumotlarning elektron almashinuvini yo‘lga qo‘yish, sanitariya, fitosanitariya va veterinariya nazorati borasidagi axborot tizimlarini integratsiya qilish, texnik jihatdan tartibga solish choralarini o‘zaro moslashtirish va elektron sertifikatlashni qo‘llash rejasini qabul qilish ushbu yo‘nalishdagi aniq amaliy qadamlar bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari bozorlari bilan bog‘lovchi “Shimol — Janub” transport yo‘lagini rivojlantirish bo‘yicha yaqin muloqotni davom ettirish muhimdir.

Shu borada transport idoralari rahbarlarining Termiz shahrida aprel oyida bo‘lib o‘tgan Belarus — Rossiya — Qozog‘iston — O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston multimodal marshrutini rivojlantirish bo‘yicha birinchi uchrashuvi samarali bo‘lganini mamnuniyat bilan ta’kidlaymiz.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida tranzitga doir tartib-taomillarni soddalashtirish maqsadida joriy etilayotgan YOII bojxona tranzitining yagona tizimi bilan Raqamli hamkorlik bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish tarafdorimiz.

To‘rtinchidan, sanoat kooperatsiyasi sohasidagi loyihalar va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturlarini kelgusida ham faol qo‘llab-quvvatlashni maqsad qilganmiz.

Bu yo‘nalishda, mamlakatlarimiz hududlarida birgalikda yaratilayotgan sanoat zonalari va texnoparklarda yangi quvvatlarni joylashtirishni nazarda tutgan holda, alohida “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishni taklif qilaman. Bunday loyihalarga biznesni keng jalb etish masalalarini joriy yilda Samarqandda bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi va YOII Ishbilarmonlik kengashining birinchi uchrashuvida ko‘rib chiqish mumkin.

Bundan tashqari, Birlashma doirasida sanoat kooperatsiyasi dasturlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus mexanizm imkoniyatlaridan foydalanishdan ham manfaatdormiz.

Beshinchidan, quyidagi muhim yo‘nalishlarda ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi organlari bilan hamkorlikni kengaytirish zarurligini alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman.

— Yevroosiyo Agroekspressini rivojlantirish, “yashil” va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, qo‘shma agrosanoat klasterlari va logistika markazlarini tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash;

— Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalarida umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish va yaqin hamkorlik qilish. Bunda tegishli Ishchi guruhining navbatdagi majlislaridan birini O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif etamiz;

— Mamlakatlarimizda mehnat migrantlari faoliyati uchun raqamli platformalarga ulangan holda, qulay sharoit va ijtimoiy kafolatlarni shakllantirish;

— Sayyohlar almashinuvini keskin oshirishga qaratilgan qo‘shma turistik dastur va mahsulotlarni ishlab chiqish.

Ushbu yo‘nalishlarning barchasi hamkorlikning o‘rta muddatdagi istiqbolga mo‘ljallangan yangi Rejasida o‘z aksini topishi mumkin deb hisoblayman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

So‘zimning yakunida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti hurmatli Vladimir Vladimirovich Putinga an’anaviy do‘stona va iliq qabul uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ishonchim komilki, ushbu uchrashuvimiz natijalari o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va sheriklikni mustahkamlash yo‘lida yana bir amaliy qadam bo‘ladi.

E’tiboringiz uchun rahmat.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI YOIINING YUBILEY SAMMITIDA ISHTIROK ETDI

Boshlanishi 1-betda

Ushbu maydonni kengaytirish, boshqa hamkor mamlakatlar, shu jumladan, Kuba, Eron, Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Mo‘g‘uliston, Vyetnam va Indoneziya kabi davlatlardan ham kompaniyalarni jalb qilish niyati bildirildi.

O‘zbekistonning kuzatuvchi sifatida YEOII bilan hamkorligi haqida so‘z yuritar ekan, davlatimiz rahbari o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi, eng avvalo, sanoat mahsulotlarini yetkazib berishni ko‘paytirish hisobidan oshganini ta’kidladi. Shu bilan birga, o‘zaro hisob-kitoblarni milliy valyutalarda amalga oshirish ulushi ortmoqda.

Mingdan ziyod qo‘shma korxona va loyihalar ishga tushirildi. Yuk tashish hajmi o‘smoqda, muntazam aviaqatnovlar soni ikki barobarga ko‘paydi.

Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan birgalikda Yuqori darajadagi ishchi guruhning uchta yig‘ilishi o‘tkazildi, Qo‘shma rejadagi barcha tadbirlar to‘liq hajmda amalga oshirildi.

O‘zbekiston savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijorat, iqlim kun tartibiga oid loyiha va dasturlarga qo‘shildi.

Davlatimiz rahbari Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlariga alohida to‘xtaldi.

Mamlakatimiz amaliy hamkorlikni kengaytirib, YOIIni rivojlantirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar doirasidagi sohaviy sheriklikning ko‘p tomonlama loyihalarini amalga oshirishda yanada faol ishtirok etishdan manfaatdor ekani ta’kidlandi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi o‘rtasida o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan qo‘shma tadbirlarning yangi kompleks rejasini tayyorlash taklif qilindi.

— Ishonamizki, kuzatuvchi davlatlarning loyihalarda to‘laqonli ishtirok etishi masalalarini tartibga soladigan mexanizmning tez fursatda qabul qilinishi ushbu hujjatning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

YOII mamlakatlari bilan savdodagi to‘siq va cheklovlarni o‘zaro bartaraf etishga tayyorlik bildirildi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston 2009-yildagi Tovarlarning kelib chiqish mamlakatini aniqlash qoidalariga qo‘shilish jarayonini boshladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bojxona chegaralari orqali harakatlanayotgan tovarlar va transport vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni elektron almashish, sanitariya, fitosanitariya va veterinariya nazorati axborot tizimlarini integratsiya qilish, texnik tartibga solish choralarini birxillashtirish rejasini qabul qilish va elektron sertifikatlashtirish bu borada aniq amaliy qadamlar bo‘ladi.

“Shimol — Janub” transport yo‘lagini Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari bozorlariga chiqadigan qilib rivojlantirish bo‘yicha yaqin muloqotni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

Shu ma’noda, aprel oyi oxirida Termiz shahrida o‘tgan “Belarus — Rossiya — Qozog‘iston — O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston” multimodal yo‘nalishini rivojlantirish bo‘yicha transport idoralari rahbarlarining birinchi uchrashuvi samarali yakunlari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tranzit tartibotlarini soddalashtirish maqsadida bugungi kunda joriy qilinayotgan YOII bojxona tranziti yagona tizimi bilan raqamli hamkorlik bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari sanoat kooperatsiyasi loyihalarini va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratdi.

Bu borada alohida “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, unda mamlakatlarimiz hududlarida hamkorlikda tashkil etilayotgan sanoat zonalari va texnoparklarda yangi quvvatlarni joylashtirishni nazarda tutish taklif qilindi.

— Bunday loyihalarga tadbirkorlarni keng jalb qilish masalalari shu yili Samarqandda o‘tadigan O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi va YOII Ishbilarmonlar kengashining birinchi uchrashuvida ko‘rib chiqilishi mumkin, — dedi Prezidentimiz.

Shuningdek, birlashma doirasidagi sanoat kooperatsiyasi dasturlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus mexanizm imkoniyatlaridan foydalanish niyati bildirildi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi organlari bilan quyidagi muhim yo‘nalishlardagi hamkorlikni kengaytirish zarurligini qayd etdi:

— Yevroosiyo Agroekspressini rivojlantirish, “yashil” va suvni tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, qo‘shma agrosanoat klasterlari va logistika markazlarini tashkil etish;

— iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yengib o‘tishda umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish va yaqindan hamkorlik qilish. Tegishli Ishchi guruhning navbatdagi yig‘ilishlaridan birini O‘zbekistonda o‘tkazish taklif qilindi;

— mamlakatlarimizda mehnat migrantlari faoliyati uchun qulay sharoitlarni shakllantirish va ijtimoiy kafolatlar yaratish, shu jumladan, raqamli platformalardan foydalanish orqali;

— turizm almashinuvini tubdan oshirishga qaratilgan birgalikdagi turizm dasturlari va mahsulotlarini ishlab chiqish.

* * *

8-may kuni Moskva shahriga amaliy tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Muloqot chog‘ida O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, shu jumladan, savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zA

VATAN FIDOYILARI XOTIRASI XALQIMIZ QALBIDA MANGU YASHAYDI

Boshlanishi 1-betda

Prezident Shavkat Mirziyoyev G‘alaba bog‘iga tashrif buyurib, “Matonat madhiyasi” yodgorligi poyiga gulchambar qo‘ydi.

Ushbu majmuadagi har bir ekspozitsiya, timsol va bitiklar mudhish urush haqiqatlarini ifoda etadi. “Matonat madhiyasi” yodgorligi urushda o‘z bolasidan, yoridan judo bo‘lgan barcha ayollar sharafiga o‘rnatilgan muazzam obidadir. Bog‘ bo‘ylab taralayotgan mungli kuy xalqimizning yo‘qotishlari, halok bo‘lgan insonlar taqdirini yodga soladi.

— Bu sanani biz ham xursandchilik, ham iztirob bilan nishonlaymiz. Urushning xalqimiz boshiga solgan og‘ir kulfatlari, oradan shuncha yillar o‘tsa-da, unutilmaydi. O‘sha paytda respublikamiz aholisi 6,5 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, shundan 1 million 950 mingdan ortig‘i urushda qatnashgan. Ularning 538 mingdan ziyodi qonli janglarda halok bo‘lgani, 158 mingdan ko‘prog‘i bedarak ketgani biz uchun hech qachon o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan og‘ir yo‘qotishdir. So‘nggi yillarda mana shunday xotira majmualari va muzeylar tashkil qilib, ushbu haqiqatni muhrlab qo‘ydik. Bu ishlarimiz xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tarbiyasida ulkan ahamiyatga ega, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda G‘alaba bog‘i yurtdoshlarimiz, yoshlar uchun o‘ziga xos vatanparvarlik, tinchliksevarlik maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu yerda “uch avlod uchrashuvlari”, xotira tadbirlari, tarix darslari o‘tkazilmoqda. Shu kungacha majmuaga 2 million 200 ming nafardan ziyod kishi tashrif buyurib, Ikkinchi jahon urushida ko‘p millatli O‘zbekiston xalqi ko‘rsatgan jasorat va matonat tafsilotlari bilan yaqindan tanishgan.

Majmua jamoasi tomonidan 50 ga yaqin kitob-albom va monografiyalar yaratilgani, ilgari noma’lum bo‘lgan yuzlab tarixiy dalillar ilmiy muomalaga kiritilgani, 2 million nafarga yaqin urush qatnashchilari ro‘yxati shakllantirilgani, aholi murojaatlari bo‘yicha bedarak ketgan jangchilar taqdiriga oid ma’lumotlar to‘planganini alohida ta’kidlash lozim.

Mamlakatimizda xotira marosimlari, urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining xotirasini ulug‘lashga qaratilgan katta ishlar muntazam amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2024-yil 16-aprelda qabul qilingan “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi farmoni ana shunday hurmat va e’tiborning yana bir amaliy ifodasidir. Mazkur farmonga muvofiq, urush qatnashchilari va nogironlariga pul mukofotlari tantanali ravishda topshirildi.

Yolg‘iz yashayotgan urush va mehnat faxriylari, istiqlolimiz himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar oilalarining uy-joylari ta’mirlanib, obod qilinmoqda.

“Bugungi kunda G‘alaba bog‘i yurtdoshlarimiz, yoshlar uchun o‘ziga xos vatanparvarlik, tinchliksevarlik maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu yerda “uch avlod uchrashuvlari”, xotira tadbirlari, tarix darslari o‘tkazilmoqda. Shu kungacha majmuaga 2 million 200 ming nafardan ziyod kishi tashrif buyurib, Ikkinchi jahon urushida ko‘p millatli O‘zbekiston xalqi ko‘rsatgan jasorat va matonat tafsilotlari bilan yaqindan tanishgan.

Tadbirda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mahalla faollari va nuroniylar ham ishtirok etib, “Matonat madhiyasi” yodgorligi poyiga gullar qo‘yishdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan G‘alaba bog‘i hududida yana bir majmua — Mustaqillik fidoyilari xiyobonini tashkil etish rejalashtirilgan. Tashrif chog‘ida ushbu majmua loyihasi taqdimot qilindi.

— Inson xotirasi va qadrini ulug‘lash borasidagi ishlarimizning uzviy davomi sifatida G‘alaba bog‘i tarkibida mana shu xiyobonni barpo etsak va unga Mustaqillik fidoyilari xiyoboni, deb nom bersak, o‘ylaymanki, el-yurtimiz qalbidagi orzu-armon va ezgu intilishlarni ro‘yobga chiqargan bo‘lamiz, — dedi davlatimiz rahbari. — Istiqlol yillarida O‘zbekiston Respublikasini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilish yo‘lida halok bo‘lgan mard va jasur o‘g‘lonlarimizning aziz xotirasiga ehtirom ko‘rsatish barchamiz uchun ham farz,

“— Bu sanani biz ham xursandchilik, ham iztirob bilan nishonlaymiz. Urushning xalqimiz boshiga solgan og‘ir kulfatlari, oradan shuncha yillar o‘tsa-da, unutilmaydi. O‘sha paytda respublikamiz aholisi 6,5 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, shundan 1 million 950 mingdan ortig‘i urushda qatnashgan. Ularning 538 mingdan ziyodi qonli janglarda halok bo‘lgani, 158 mingdan ko‘prog‘i bedarak ketgani biz uchun hech qachon o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan og‘ir yo‘qotishdir. So‘nggi yillarda mana shunday xotira majmualari va muzeylar tashkil qilib, ushbu haqiqatni muhrlab qo‘ydik. Bu ishlarimiz xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tarbiyasida ulkan ahamiyatga ega, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

ham qarzdir. Vatanga fidoyilik namunasini ko‘rsatgan, yurt tinchligi va kelajagi uchun kerak bo‘lganda jonini qurbon qilgan bu bahodir farzandlarimizning qahramonligi xalqimiz, yosh avlodimiz uchun doimo o‘rnak va namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz va chet ellik mutaxassislar hamkorligida har tomonlama puxta ishlab chiqilgan betakror loyihaga ko‘ra, Mustaqillik fidoyilari xiyobonida ona yurtimizga uyushtirilgan terrorchilik xurujlariga qarshi kurashda, shuningdek, o‘z harbiy burchini ado etish chog‘ida halok bo‘lgan askar va ofitserlarning qutlug‘ nomlari, o‘chmas xotirasi abadiylashtiriladi.

Davlatimiz rahbari majmua g‘oyasi va qurilishi bo‘yicha mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

Yuz yosh bilan yuzlashib, hayotning barcha achchiq-chuchugini ko‘rgan insonlar uchun eng muhimi sog‘liq. Shuning uchun ularning salomatligini mustahkamlashga doimiy e’tibor qaratilmoqda. Ayni kunlarda ham bir guruh urush faxriylari gospital va sanatoriylarda davolanmoqda.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy klinik gospitaliga borib, urush qatnashchilari holidan xabar oldi.

Uskan ota Xadjimanov Boyovut tumanidan, Fayzulla ota Nurmatov Oqqo‘rg‘on tumanidan, Anarboy ota Jalilov Parkent tumanidan, Muhiddin ota Dusanbayev O‘rta Chirchiq tumanidan kelib davolanmoqda. Ular hayotidan rozi ekani, davlatimizning va odamlarning hurmatidan xursandligini aytishdi. Salomatliklari tuman tibbiyot birlashmasining doimiy nazoratida, bepul dori-darmon va har yili sanatoriylarga yo‘llanmalar beriladi.

Nuroniylar Prezidentimizga nevara-chevaralarining o‘qish va ishlari, yutuqlari haqida so‘zlab berishdi. Ular ta’lim, qurilish, ichki ishlar, qishloq xo‘jaligi kabi turli sohalarda samarali mehnat qilib, yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shmoqda. Yoshlar zamonaviy bilim olib, chet ellarga o‘qishga ketmoqda. Bobolar ularni tinchlikning qadriga yetish, vatanparvarlik, mehnatsevarlikka da’vat etib keladi.

— Hamma harakatlarimiz xalqimizni rozi qilish uchun, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Islohotlar natijasi eng quyiga, har bir xonadonga kirib borishini istaymiz. Rejalarimiz ham katta. Hamma jipslashsa, birgalikda harakat qilsa, o‘ylagan niyatlarimizga tezroq yetishamiz. Sizdek nuroniylarning duolari bunda bizga madadkor bo‘ladi. Sizlarning hayotingiz iroda, jasorat maktabi, gaplaringiz yoshlarga ibrat.

Otaxonlar mehr-e’tibor uchun davlatimiz rahbariga rahmatlar aytdi. Dunyoning tinchligi, yoshlarning porloq kelajagini so‘rab duolar qildi.

Gospitalda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari munosib parvarish qilinmoqda. Bu muassasa mukammal ta’mirlanib va yangi binolar qurilib, 2022-yil foydalanishga topshirilgan edi. Gospital jami 700 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari, soha faxriylari bepul davolanadi. Buning uchun 286 xil diagnostik tekshiruv, 600 dan ortiq amaliyotlar yo‘lga qo‘yilgan, 30 ga yaqin ixtisoslashgan bo‘limlar tashkil etilgan.

O‘zA

O‘tganlar xotirasini yod etish, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front ortida mehnat qilgan faxriylarga ehtirom ko‘rsatish ma’naviyatimizning ajralmas bo‘lagidir. Ayniqsa, oxirgi yillarda keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, beqiyos jasorati va matonatini tarix sahifalariga muhrlash borasidagi ishlar ko‘lami yanada kengaydi.

CHINAKAM JASORAT VA ODAMIYLIK BELGISI

Dilbar MAMAJONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Shu bilan birga, Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga munosib hissa qo‘shgan, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini abadiylashtirish, oramizdagi

barcha faxriylarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu bejiz emas. Chunki el-yurt tinchligi, osoyishtaligi yo‘lida qurbon bo‘lgan qahramonlar yodi qalbimizdan aslo o‘chmaydi.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat, jumladan, xalqimiz boshiga qanday og‘ir azob-uqubat va talafotlar, behisob qurbonlar keltirgan. Fashizmga qarshi mardona jang qilgan, og‘ir mashaqqat va musibatlarni boshdan kechirgan ushbu qahramonlarning dil bitiklarini keyingi avlodlarga yetkazish, xalqimiz asrlar davomida orzu qilgan erkinlik uchun o‘z jonini qurbon qilganlar xotirasini hamisha yod etish biz uchun ham qarz, ham farz sanaladi.

Oxirgi yillarda Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o‘rganishga katta e’tibor qaratilayotgani sababi shunda. Nega desangiz, 2020-yilga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil qilgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan deb hisoblanar edi. Arxivlar o‘rganilib, yangi topilgan ma’lumotlar tahlil qilinganda O‘zbekistondan 2 millionga yaqin kishi urushga safarbar etilgani ma’lum bo‘ldi. Bu har uch o‘zbekistonlikdan bittasi qo‘liga qurol olib, jang qilgan, degani.

Yurtdoshlarimizning 538 mingdan ko‘prog‘i halok bo‘lgan, 158 mingdan ortig‘i bedarak yo‘qolgan. Shuningdek, 870 mingdan ortig‘i turli jarohatlar olib, 60 ming nafardan ziyodi nogiron bo‘lib qaytgan. Urushda 214 ming askar va ofitserlarimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan, ularning 301 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, 70 nafari uchala darajadagi “Slava” (“Shuhrat”) ordeniga sazovor bo‘lgan.

> **“ Xalqimiz urush hududlaridan evakuatsiya qilingan 1 million 500 mingga yaqin insonga boshpana bergan bo‘lsa, ota-onasidan ayrilgan 250 ming nafar yetim bolaga mehr-oqibat ko‘rsatib, o‘z bag‘riga oldi.**

O‘zbekiston urush maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradigan muhim tayanch markazlaridan biriga aylandi. Zavod va fabrikalar harbiy maqsadlarda qayta tashkil etilib, ko‘p millatli aholimizning fidokorona mehnati bilan o‘sha vaqtdagi 300 ga yaqin korxonada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarildi. Front hududlaridan yurtimizga 151 ta zavod ko‘chirib keltirilib, qisqa fursatda ishga tushirilgan.

Ushbu zavodlarda keksalar, ayollar, o‘smirlar tun-u kun mashaqqatli mehnat qilgan. Axir bu haqiqiy fidoyilik, qahramonlik namunasi emasmi?! Bunday misollar g‘alaba biz uchun naqadar qimmatga tushgani, xalqimiz dunyoni fashizm balosidan xalos etishga qanday katta hissa qo‘shganini yaqqol namoyon etadi.

Bugungi kunda 9-may — Xotira va qadrlash kuni Ikkinchi jahon urushining ayanchli oqibatlarini unutmaslikka, tinchlik va osuda hayotning qadriga yetishga, vatanga sadoqat hissi bilan yashashga, shuningdek, doimo ogoh va hushyor bo‘lishga xizmat qilib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari farmoni bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga yigirma million so‘m miqdorida bir martalik pul mukofoti berilishi, shubhasiz, yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlikning yorqin namunasidir. Shuningdek, ularning har biriga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ularni parvarish qilish maqsadida tibbiyot xodimlarini biriktirgan holda doimiy ravishda patronaj xizmati yo‘lga qo‘yilgani e’tiborga molik.

Umuman olganda, xalqimiz o‘z qahramonlarini aslo unutmaydi. Ularning porloq xotirasi qalbimizda abadiy saqlanadi. Tiriklarni qadrlash, ularga mehr va e’tibor ko‘rsatish esa chin insoniy fazilatdir. Yurtimizda har yili Xotira va qadrlash kuni keng nishonlanib kelinayotgani, shubhasiz, inson zotiga, uning muqaddas yodi, umri davomida bajargan ezgu amallariga bo‘lgan cheksiz ehtirom ramzi, desak aslo yanglishmaymiz. Zotan, ularning fidoyiligi tufayli bugun mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik hukm surmoqda, hayotimiz farovon, osmonimiz musaffo.



UMRIMIZNING ROSTGO‘Y TAROZIBONI



Zilola XO‘JANIYOZOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira

Xotira — inson umrining mahsuli, yashab o‘tgan hayotimizning rostgo‘y taroziboni. Inson o‘ziga o‘lchab berilgan umrni yashar ekan, bu yo‘l yaxshi va yomon, yorug‘ yo armonli xotiralar bilan shuurimizga muhrlanadi. Bir kun kelib, umr pillapoyalarimizning so‘nggi bekatida ortga boqib, o‘sha xotiralar bilan yuzlashamiz. Shu onda “Hayotda bekor yashamabman, umrim zoye ketmabdi” degan xulosaga kela olishimiz, ortda qolgan kunlarimizdan mamnunlik hissini tuyishimizning o‘zi eng katta saodat, baxt, aslida. Shunday ekan, umrimizni savobli ishlar, yaxshiliklar bilan naqshlash har birimizning o‘z qo‘limizda.

Bolaligimda biz — nabiralar supada choy ichib o‘tirgan bobomning atrofiga yig‘ilib, uning urush haqidagi qiziq hikoyalari, hangomalarini eshitishni xush ko‘rardik. Hammamiz har tomondan bobomni savollarga ko‘mib tashlardik:

— Bobojon, qo‘lingizga nima qilgan?

— Urushga tashlab kelganman, bolam...

— Urush yomon narsami?

— Juda yomon narsa. Sizlar hech qachon urush ko‘rmanglar. Ilohim, yurtimizda hamisha tinchlik bo‘lsin.

Nigohlarida armon muhrlangan bobomning hikoyalarini hayajon bilan tinglardik. Bolalik shuurimda qolgan xotiralardan biri, bobom hikoya aytayotganda bir nuqtaga tikilgancha uzoq muddat sukut saqlab, xayollar og‘ushida og‘ir xo‘rsinib qo‘yardi. Xotiralar uni olis urush maydonlariga olib ketardi. Bobom o‘n yetti yoshida urushga ketib, jangda daydi o‘qqa duch kelib, bir qo‘li nogiron bo‘lib qaytgan.

Bobomning hikoya qilishicha, Sodiq ismli hamqishlog‘i oilada yettita qizdan keyin yagona o‘g‘il bo‘lib, onasi uni yig‘lay-yig‘lay urushga kuzatgan. Har kuni xat kelishini kutib, ostonada telbanamo yo‘l poylagancha onaxonning umri poyoniga yetgan. Bobom shu do‘sti bilan jang maydonida uchrashib qolgan, jang-u jadal, talato‘pda tuzukroq gaplashishning ham iloji bo‘lmagan. Ammo bobom uning g‘amgin ko‘zlaridagi o‘sha kungi mungni, katta sog‘inchni necha yillar davomida unutolmadi, takror-takror so‘zlab berardi. Afsuski, hamqishlog‘i urushdan qaytmagan. Ammo uning o‘sha ma’yus nigohi bobom xotiralarida ko‘p yillar yashadi, bu intiq nigoh yurt mehri, vatan sog‘inchi edi.

Bobom mustaqilligimizning ilk yillarida vafot etdi. Umrining oxirigacha “Ming shukrlar bo‘lsinki, bugun men vatanim quchog‘ida, ona yurtim koriga yaramoq baxtiga musharrafman”, deya shukronalik bilan yashadi.

Bugun biz uchun urush hikoyalari ertaklarga aylangan. Ammo shu kecha-kunduzda dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga nazar solib, barcha xalqlar ham tinchlik deb atalmish mana shu ulug‘ ne’matdan birdek bahramand emasligi guvohi bo‘lamiz. Ming afsuski, buning natijasida qanchadan qancha onalar behalovat, otalar o‘ychan, qariyalar xotirjam hayot kechirishdan, farzandlar risoladagidek ta’lim-tarbiya olishdan mahrum.

Otamning xotirlashicha, o‘sha dahshatli urushning so‘nggi yillarida mamlakatda ocharchilik hukmron, otasi urushda, kasalmand volidasi qishning qirchillamasida to‘rt jo‘jabirday jonni bir kun och, bir kun chala to‘qlab, amallab kun ko‘rishgan paytlar. Onasi har kuni yolvorib, “Xudoyim, bolalarimni sog‘-omon ko‘klamgacha yetkaz, u yog‘iga yerdan quloq chiqargan rizqini yeb kun ko‘rib ketar”, deya iltijo qilarkan...

Kezi kelganda qattiq ta’sirlantirgan bir voqea hech yodimdan chiqmaydi. Bir necha yil avval xalqaro tadbir sabab qo‘shni Afg‘onistondan yurtimizga kelgan hamkasblarimizni poytaxtimizning eng yaxshi mehmonxonalaridan biriga joylashtirdik. Ertasi kuni tongda nonushta ustida aziz mehmondan:

— Yurtimiz yoqdimi, yaxshi dam oldingizmi? — deya so‘radik.

Afg‘on do‘stlarimizdan biri faryoblik Zaynulloh biroz sukutdan so‘ng xo‘rsinib gap boshladi:

— Balki hozir aytadigan gaplarimga ishonmassiz, ammo bu haqiqat. Men bu tun shunchalar miriqib uxlabmanki, go‘yo jannat bog‘idagidek his etdim o‘zimni. Bunchalar halovatli va osuda uyquni xalqimiz unutib qo‘yganiga juda ko‘p yillar bo‘ldi. Biz kunlarimizni hadik bilan o‘tkazamiz, tunlarni xavotir bilan qarshi olamiz. Har kuni uyquga ketishdan avval oila a’zolarimiz bilan rozi-rizolik so‘rab, vidolashib uyquga yotamiz. Chunki har kecha qayerdadir bomba portlashi yo qurollardan otilgan o‘qning mash’um ovozi yoki qaysidir bechora onaizorning ayriliqdan alamli dod-faryodi qalbimizni tilka-pora qiladi. Qaysidir birodarimiz uzoqroq safarga otlansa, vidolashib xayrlashamiz, chunki uning sog‘-omon qaytishi biz uchun dargumon. Shunday ko‘rgiliklar yurakni ezgan damlarda boshimni olib uzoqlarga ketib qolgim keladi. Ammo ota-bobolarimning xoki yotgan aziz yerni tashlab ketishga ko‘zim qiymaydi, imkonim ham yo‘q. Bugun osoyishta yurtingizda yangi kunni qarshilarkanman, mana shunday munavvar tonglar jafokash xalqimga ham nasib etishini Allohdan chin dildan so‘radim, niyat qildim...

Ha, urushning nomi o‘chsin, u har bir xalqning ertangi kunga bo‘lgan yorug‘ umidini quritadi, mamlakat zavol topadi, xarobaga aylanadi. Bugun urush o‘chog‘iga aylangan yurtlarning og‘ir holati, yuragi uyg‘oq, iymoni butun bo‘lgan hech bir insonni befarq qoldirmaydi.

Ana o‘sha afg‘on o‘zbeklaridan bo‘lgan do‘stimiz Zaynulloh bilan oxirgi marta internet orqali xabarlashganimda undan juda tushkun va bo‘g‘iq ovozdagi xabarni oldim:

“Yurtdoshlarimning yuragida sarosima, odamlarda halovat yo‘q. Oddiy xalq o‘zini ertaga nima kutayotganini bilmay xavotirda. Afg‘on xalqi savashlardan charchadi. Urush bor joyda o‘lim bor. Xalq o‘limlardan, yo‘qotishlardan tolgan. Afg‘on xalqining oz bo‘lsa-da, eliga ziyo tarqatishni istagan, endigina o‘sib kelayotgan ziyoli yosh qatlami har yerda parokanda, asosiy qismi esa chet yurtlarga ketishdan o‘zga chora topolmadi...”.

Zaynulloh Faryob universitetining o‘zbek tili fakultetida o‘qigan. O‘zbek adabiyotiga, she’riyatiga o‘zgacha mehr-u muhabbati bor. Navoiy bobomizdan tortib, bugungi davr o‘zbek ijodkorlari asarlarigacha sevib o‘qiydigan, o‘zi ham she’rlar mashq qilib turadigan ziyoli inson bo‘lib, uning orzulari juda ko‘p.

Dunyoda muqaddas tushunchalar bisyor, ammo bular ichida shunday bir ne’mat borki, uning sog‘inchi oldida shoh-u gado barobar, qadri dunyoning jamiki dur-u gavharlari, boyliklaridan-da baland. Bu Vatan atalmish aziz makondir. Shu ulug‘ Vatanning tinchligi va beg‘ubor osmonini asrab-avaylash esa har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir.

* * *

Momomning bir xirgoyisi bo‘lardi:
Yo‘l oldi-ya Sibir tomon,
Qon yig‘latib parovozning do‘ngalagi,
Ketmog‘i bor, qaytmog‘i yo‘q,
Qurib ketsin bu zamonning ko‘rgiligi…

Ha, bu do‘ngalak ostida ne-ne buyuk ajdodlarimiz qismatlari qolib ketmadi, deysiz. Jafokash, yurtsevar bobolarimizni bag‘rimizdan yulib, Sibir degan borsa qaytmas tomonlarga olib ketdi bu do‘ngalak. Qanchadan qancha oilalar otasiz qoldi, sazoyi qilindi. Millatimiz daholaridan ayrilib, erksevar bolalarini qon qaqshagancha nochor va noiloj kuzatib qolaverdi.

Toshkentga mehrim bo‘lakcha, keyingi yillarda qanchalar chiroy ochdi bu shahar. Men uchun shaharda shunday joy borki, har gal u yerga borganimda yuragimga og‘ir-og‘ir xo‘rsiniq keladi, botmon-botmon dardni his etaman, olis-olis tarix gavdalanadi ko‘z oldimda. Bu makon Shahidlar xiyoboni! U yerda hamisha sokinlik hukmron. U yerda osmon ham o‘ychanroq, asl o‘g‘lonlarining so‘nggi nigohi qadalgan unga. Zamin-da og‘irroq. Oh, bu zamin, bu tuproq ne-ne darg‘alarning ushalmagan, so‘ngsiz armonlarini bag‘riga bosgancha quchoqlab yotibdi. Bir qarashda sokin oqayotgan anhorgina dardini ichiga sig‘dira olmay, to‘lib-toshib tarixdan so‘zlayotganday. Har gal uni uzoq tinglayman.

Jo‘shib-jo‘shib gapiradi u, hatto titrab ketar lablari. Atrofda sukunat hukmron, unda-bunda daraxtlar boshiga qo‘ngan yuz yillik qarg‘alar — tirik guvohlar uning gaplarini ma’qullab qo‘yadi. Qodiriyning armonini so‘zlaydi anhor. Usmon Nosir, Cho‘lponni qo‘msaydi. Tarixning “eng kir, qora kunlari”dan bo‘zlaydi anhor:

Zulmat tun… otildi asl ummatlar,
Ne-ne Qodiriylar, Cho‘lpon, Fitratlar.
Eslasam, “oh”lari dilni titratar,
Bag‘rimda millatning titrog‘i yashar.

* * *

Yaponiya Ikkinchi jahon urushida eng ko‘p aziyat chekkan mamlakatlardan biri. Shunday bo‘lsa-da, u qisqa vaqt ichida dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shildi. Kunchiqar yurtning bu darajada yuksalishiga yapon xalqining mehnatkashligi, sabr-toqati, asosiysi, vatanparvarligi sababdir. Mazkur mamlakatda tez-tez zilzila bo‘lib turadi, ammo birorta ham talonchilik kuzatilmagan. Bu ham yapon xalqining yuksak ma’naviyatidan, vatanparvarligidan dalolat. Bir vaqtlar o‘qigandim, urushdan keyingi og‘ir davrlarda yapon xalqi bozorlarda taklif qilinayotgan har qanday yuqori sifatli xorij mahsulotini emas, o‘z yurtida ishlab chiqarilgan, garchi sifati haminqadar bo‘lsa-da, mahsulotni xarid qilar ekan. Nega, deb berilgan savolga ular: “Men o‘zgalar yurti emas, o‘z yurtimning boyishiga hissa qo‘shishim kerak” degan javobni bergan. Bu vatanparvarlikning, yurtsevarlikning o‘zi emasmi? Ehtimol, bugun biz ham nafaqat vatanparvar, balki yurtini jonidan ortiq sevadigan yurtparast ham bo‘lmog‘imiz kerakdir?..

Bir donishmand “Sen menga e’tiqoding va qay tariqa toat-ibodat qilishingni, qalbingda ezgulik, jasurlik, or-nomus va burch qanday darajada ekanini, sen qanday xirgoyi etishing, yig‘lashing va she’r qiroat qilishingni, sevimli daholaring, ulug‘laring kimligini ayt, men senga qanday millatning farzandi ekaningni aytaman”, degan ekan.

Demak, har bir farzand o‘z millati e’tiqodi, qadriyatlari, urf-odatlarini qon-qoniga singdirib borishi, shu vatanning bir bo‘lagi, parchasi bo‘lib o‘sib-ulg‘ayishi kerak.

Menga ba’zida she’r yozishga sizni nima da’vat etadi, deb savol berishadi. Yuragimdan jo‘shib, mana bunday degim keladi: “Axir shunday buyuk ajdodlar, shu muqaddas tuproq, dono bobolar, doston-u ertaksevar momolarim pok ruhlari haqqi-hurmati, ayting, shunday mo‘tabar zamin, buyuk Vatanda ijod etmay, she’r yozmay yashash mumkinmi?..”.

Bir kuni bolakay quyoshdan so‘rabdi:

— Sen qorong‘ilikni ko‘rganmisan?

— Yo‘q, hech ko‘rmaganman, — debdi quyosh.

— Yur, senga uni ko‘rsataman.

Bolakay uni uyining zax va qorong‘i yerto‘lasiga olib kiribdi.

Yerto‘laga kirgan quyosh:

— Qani o‘sha qorong‘ilik? — deb so‘rabdi hayron.

Chunki quyosh kirgan har manzilda zulmat yo‘qoladi.

Shunday ekan, har bir mamlakatdagi taraqqiyot, o‘sish va o‘zgarishlar, avvalambor, shu el farzandlarining qalbida yurtiga bo‘lgan quyoshmonand mehr-u muhabbatidan, saxovatdan, fidoyilik taftidan kuch oladi, quvvatlanadi. Toki, jonajon Vatanimizning ertangi yorug‘ kelajagi har birimizning so‘zimizu amalimizdagi yorug‘ va sog‘lom niyatlardan taft olsin.

Ikkinchi jahon urushi va front ortida xizmat qilgan nuroniyning bugungi erkin va farovon hayotimizni barpo etish yo‘lidagi matonati, jasorati, mehnatini munosib qadrlash, faxriylarni e’zozlash, salomatligini muhofazalash yo‘lida tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida tizimli ishlar olib borilyapti.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 9-may, 89-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

INSON QADRI ULUG‘

URUSH HAR BIR XALQ, YURT UCHUN BEGONA BO‘LSIN!

Dunyoda eng qadrli ne’mat – ozodlik. Vaqt charxpalagi aylanar ekan, inson qo‘li bilan yaratilgan barcha narsa unutiladi. Ammo yurt ozodligi uchun kurashganlarning yodi mangu. Vatan ozodligi va erki uchun jon olib, jon berganlarning fidoyiligi sabab bugun yurtimizda tinchlik hukmron. Urush faxriylari esa e’zoz va e’tiborda.
Kuni kecha Prezidentimiz Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy klinik gospitalida bo‘lib, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari holidan xabar oldi, ular bilan samimiy suhbat qurdi.

Uskan ota XADJIMANOV
Sirdaryo viloyatidan:

— Umrimning yarmidan ko‘pi urush asoratlarini yengish bilan o‘tdi. Odam bu dunyoga urush qilaman, jangga kiraman deb kelmaydi. Biz ko‘rgan kunlar zahmati bugunning hikmatiga arzimaydi. Tinchlik — oliy ne’mat. Frontda boshimizga ne kunlar tushmadi. Qishloqdan bir safda chiqib ketgan vatandoshlarning ko‘pi bugun o‘zga yurt tuprog‘ida yotibdi.

Odamzod omon bo‘lsa, boshidan ko‘p narsa o‘tarkan. Bekorga insonning boshi toshdan bo‘lsin, deyilmas ekan. Bu urush ko‘pga kelgan to‘y bo‘ldi. Yoshni ham, qarini ham birdek o‘z domiga tortib ketdi.

Hali-hanuz qulog‘im ostida janggohlardagi faryodlar eshitiladi.

Bu kunlarni orzu qilgandik. Shukuhli kunlarga yetish orzusida qanchalab odam o‘tib ketdi. Yurtimizdagi imkoniyatlarni ko‘rib quvonamiz. Farzand va nabiralarimga zamonning, tinchlikning qadriga yetish kerakligini aytaman.

Prezidentimiz bilan uchrashib, juda xursand bo‘ldim. Bizga shunday sharoit yaratib bergani uchun rahmat. Bayram sovg‘asiga qo‘shimcha Guliston shahridan uy ham hadya qildi. Biz kabi nuroniylarga qaratilayotgan bunday e’tibordan duodamiz. Yana bir gapni aytmasam bo‘lmas: ozod yurtda, yaqinlaring bilan sog‘-omon yashash katta baxt. Bu yurtning tuprog‘i uchun to‘kilgan qonlar, erki uchun berilgan jonlarning xotirasi abadiy.

Fayzulla ota NURMATOV
Toshkent viloyatidan:

— 1920-yili Jizzax viloyati G‘allaorol tumanida tug‘ilganman. Bu yil 104 yoshga kirdim. Besh farzandim bor, 24 nevara, 33 chevaraning bobosiman. Hozir Oqqo‘rg‘on tumanidagi Hamid Olimjon mahallasida yashayman.

1940-yili akam, jiyanim va qarindoshlarim — jami 20 ga yaqin yigit armiya xizmatini o‘tash uchun Belarusga ketdik. Xizmatimiz urushga ulandi. Janglarda yelkam va qo‘limdan yaralangach, O‘zbekistonga qaytdim. Men bilan ketganlardan faqat 5-6 kishi tirik qaytdi. Qolganlarga bugungi dorilamon kunlarni ko‘rish nasib qilmadi.

Urushdan keyin og‘ir ocharchilikni boshdan o‘tkazdik. Yigitlik davrimiz ham nonga to‘ymay o‘tdi. Davlat nochor. Bug‘doy yeganmiz. Bug‘doyni “oqpoya”, der edik. Oilamiz 1950-yillardagi ocharchilik sabab Jizzaxdan Toshkentga ko‘chdi. Biz bilan birga 20 tacha oila ham kelgan. Birgalashib yer o‘zlashtirdik, bir necha yillar davomida obod qildik. Hozirgacha ishlagim keladi, lekin keksalik o‘z so‘zini aytarkan. Shuning uchun odam yosh vaqtida harakat qilishi, ishlashi kerak.

Davlatimiz rahbari bizni yo‘qlab keldi. Ko‘rib, ko‘nglimiz tog‘day ko‘tarildi. U kishi ajoyib suhbatdosh ekan. Bir gurunglashgan kishi yana gaplashsam, deydi. Umri uzoq bo‘lsin. Biz, urush faxriylariga, umuman, keksalarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik va e’tibordan minnatdormiz.

“ DAVLATIMIZ RAHBARI BIZ BILAN DILDAN SUHBATLASHIB, AHVOLIM, OILAMIZ A’ZOLARINING SOG‘LIG‘I BILAN QIZIQDI. “QANDAY YORDAM KERAK BO‘LSA, BERAMIZ”, DEDI. BU YURTIMIZDA INSON QADRI ULUG‘LIGIDAN DARAK. BEL BOG‘LAB, ISLOHOTLARGA KIRISHGAN PREZIDENTIMIZNI DOIM DUO QILAMAN.



Muhiddin ota DUSANBAYEV
Toshkent viloyatidan:

— Urush davrida Berlingacha borganman. U yerda besh yil qayta tiklash ishlarida qatnashdim. 1950-yili uyga qaytganman. 23 yil xo‘jalikda rais bo‘ldim. Odamlar yashashdan maqsad topolmay qolgan davrlar edi. Kelajakga hech narsa ishontirmay qo‘ygan.

Bu urush birga unib-o‘sgan birodarlarimizdan, og‘alarimizdan ayirdi. “Bir kun urush bo‘lgan joydan qirq kun baraka ketadi” degan gap bekorga aytilmagan. Urushdan so‘ng turli kasalliklar tarqalib, ochlik hukm sura boshladi. Odamlar kepak, makkajo‘xori, arpa unidan yopilgan non topsa, bayram edi. Onalar va bolalar orasida ko‘plab kasalliklar tarqalgan. Ko‘pchilik ochlikdan o‘lib ketgan. U yillarni eslamaslikka harakat qilaman. Ammo xotiralar tark etmaydi. Jang maydoniga kirar ekansiz, yog‘ilayotgan o‘qlarni, yer bilan bitta bo‘lib yotgan askarlarni ko‘rib, ba’zan bu vahshiylikdan dahshatga tushardim.

Bugun yurtimizda to‘qchilik hukmron, dasturxonlar to‘kin, har kim o‘zi yaxshi ko‘rgan narsani birovga ham ravo ko‘radi. Asl baxt shu emasmi? Inson qadri tiklandi. Yurtimiz jahonga bo‘ylamoqda. Davlatimiz rahbari biz bilan dildan suhbatlashib, ahvolim, oilamiz a’zolarining sog‘lig‘i bilan qiziqdi. “Qanday yordam kerak bo‘lsa, beramiz”, dedi. Bu yurtimizda inson qadri ulug‘ligidan darak. Bel bog‘lab, islohotlarga kirishgan Prezidentimizni doim duo qilaman.

“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari Lutfulla SUVONOV, Sardor TOLLIBOYEV yozib oldi.

SO‘ZI – HIKMAT, HAYOTI – IBRAT

Shu kunlarda azim Toshkentning tarixiy maskanlaridan biri Achaobod mahallasiga kelib-ketuvchilarning qadami uzilmaydi. Tashrif buyuruvchilar orasida davlat va jamoat arboblari, mahalla faollari, ziyolilar, turli soha vakillari bor. Ular asr bilan yuzlashayotgan Abbos ota Apponovni yo‘qlab keladi. Siymosidan nur yog‘ilib turgan, hayotning ko‘plab sinovlarini yengib o‘tib, tarixning jonli timsoliga aylangan otaxonning xotiralarini tinglash, purma’no o‘git va nasihatlarini eshitish, ayniqsa, yoshlar uchun juda maroqli. Shu bois, yo‘qlab keluvchilar orasida ko‘plab yoshlarni uchratish mumkin.

Otaxonning xonadoniga kirib borar ekanmiz, bu yerda “Nuroniy” jamg‘armasining Toshkent shahri bo‘limi, tuman hokimligi vakillari, harbiylar va mahalla faollarini uchratdik. Ular otaxonni yaqinlashib kelayotgan Xotira va qadrlash kuni bilan qutlab, esdalik sovg‘alar topshirdi. Qutlug‘ yoshi muborakbod etilib, do‘ppi va zarbof chopon kiydirildi. Abbos ota duoga qo‘l ochib, dunyoga tinchlik, yurtimizdagi ezgu ishlarga rivoj, yoshlarga kamolot tilab Yaratganga iltijo qildi.

Fursatdan foydalanib, biz ham ota bilan bosib o‘tgan umr yo‘li, faoliyati haqida suhbatlashdik.

Abbos Apponov 1925-yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Ikkinchi jahon urushi Abbos otaning navqiron yoshlik yillariga to‘g‘ri keldi. Endigina 17 ga kirgan yigit o‘sha davrdagi 2 yillik pedagogik ta’lim dargohini tugatib, maktabda yoshlarga bilim bera boshlagandi. Navnihol yigitning orzulari bir olam, rejalari bisyor edi. Mash’um urush uning bor niyatini puchga chiqardi, qismatini o‘zgartirdi. Butun insoniyat boshiga og‘ir kunlarni solgan bunday sinovli damlarda elning mard o‘g‘lonlari halovatini unutib, yurt himoyasiga otlanardi. Abbos ham shundaylar safida bo‘ldi. Urushning ilk kunlaridan frontga borishga ahd qildi.

Abbos Apponov 1942-yilda frontga jo‘natildi. Smolensk ostonalarida jangga kirib, Berlingacha piyoda bordi. Qonli janggohlarda kechgan voqealarni so‘z bilan ifodalash qiyin. Yoz jaziramasi, qish qahratoni, ochlik, tashnalik azobi, yomg‘irday yog‘ilayotgan snaryad o‘qlari ostida tirik qolishning o‘zi mo‘jiza.

1945-yilning apreli. O‘shanda Abbos Apponov xizmat qilayotgan qism Berlinni ishg‘ol etishga hozirlik ko‘rayotgan edi. Hujumga tayyorlanish uchun okop qazish haqida buyruq berildi. Bu yurt tuprog‘i juda yumshoq, qumga o‘xshagan sochiluvchan ekan. Shu sababli bor-yo‘g‘i 69-70 santimetrgacha chuqurni zo‘rg‘a kovlashadi. Bu esa to‘la xavfsizlikni kafolatlamaydi. Okopdan salgina bosh ko‘targan jangchi dushman nishoniga aylanardi. Shu taxlit 10-15 kunlab och-nahor okoplarda qolib ketgan vaqtlar ham ko‘p bo‘lgan ekan.

Ota hozirgi ulug‘ yoshida ham frontda kechgan shunday og‘ir kunlarini aslo unutmaydi. Qaysi yurtda, qanday frontda, qay taxlit jang qilganini birma-bir so‘zlaydi. Otaning frontda kechgan kunlari haqidagi xotiralarini tinglash ham oson emas. Uni eshitgan har bir tinglovchi urush qanchalik dahshatli va halokatli ekanini, bu maydonda inson hayotining qilcha qadri yo‘qligini yurak-yurakdan his etadi.

— Urushning nomi o‘chsin, biz ko‘rgan u qora kunlarni avlodlarimiz aslo ko‘rmasin, — deydi Abbos ota. — Bugungi hayotimiz bebaho. Qarang, hamma yoqda qurilish, obodonlashtirish ishlari avjida. Yurtimizdan to‘y-tomosha, bayramlar arimaydi. Bozorlar to‘kin, ne’matlar bisyor. Bu kunlar qadrini bilish, har bir ne’matga shukr qilish kerak. Yoshlarga bu haqda ko‘p gapiraman.

Abbos ota Apponov frontdan qaytgach, yana o‘z kasbi — o‘qituvchilik faoliyatini davom ettirdi. Keyinchalik institutda tahsil olib, xorijiy tillardan maktabda yoshlarga uzoq yillar saboq berdi. Turmush o‘rtog‘i rahmatli Hamida aya bilan 7 farzandni voyaga yetkazdi. Hozir otaning saksondan ziyod nevara, chevara, evarasi bor.

Yaqinlarining aytishicha, Abbos ota shu yoshda ham tinch o‘tirmas, oila yumushlari, farzandlar tarbiyasi va boshqa hayotiy masalalarda yaqinlariga maslahat va tavsiyalar berishni kanda qilmas ekan. Mahalla faollari ham turli masalalarda otaxonning maslahatini olish maqsadida tez-tez xonadoniga kelib turadi. Hovlidagi mo‘jazgina tomorqaga ekin ekish va parvarishlashga ham ota o‘zi bosh-qosh. Bundan tashqari, Abbos ota kitob o‘qishni xush ko‘radi, yurtimiz va xorijda bo‘layotgan yangiliklardan doimo voqif bo‘lib turadi.

O‘z navbatida, bir asrlik tariximizning jonli timsoli, hayoti ibrat, o‘gitlari purma’no hikmat bo‘lgan yoshi ulug‘ insonning bugungi farovon hayotimizga erishish yo‘lida ko‘rsatgan jasorati va mehnatini qadrlash, faxriylarimizni e’zozlash, boy hayotiy tajribasidan yoshlar kamoloti yo‘lida samarali foydalanish ham doimiy e’tiborda. Shu maqsadda tegishli davlat va jamoat tashkilotlari tashabbusi bilan otaxon xonadonida turli uchrashuvlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazib turiladi.

Darvoqe, burnog‘i yili Abbos Apponov xonadoniga Prezidentimiz ham tashrif buyurib, zamonaviy mashina sovg‘a qilgan edi. Darvozaxona to‘rida turgan bu mashina ota uchun juda ardoqli. Yaqinlarining yaxshi kunlarida, bayram va shodiyonalarda ushbu mashina rulini nabirasiga topshirib, to‘y-tomoshaga borishni xush ko‘radi.

“Nuroniy” jamg‘armasining Olmazor tumani bo‘limi raisi Mirziyod Mirpo‘latovning aytishicha, Ikkinchi jahon urushi va front ortida xizmat qilgan nuroniyning bugungi erkin va farovon hayotimizni barpo etish yo‘lidagi matonati, jasorati, mehnatini munosib qadrlash, faxriylarni e’zozlash, salomatligini muhofazalash yo‘lida tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida tizimli ishlar olib borilyapti.

Qolaversa, pensiya yoshidagi 34 mingdan ko‘proq faxriyni ham qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu imkoniyatdan foydalanib, joriy yilning mart-aprel oyida ularning yuz nafardan ko‘prog‘i sanatoriy va sog‘lomlashtirish maskanlarida salomatligini tikladi. Joylarda oilaviy poliklinika shifokorlari tomonidan muntazam ravishda tibbiy ko‘riklar o‘tkazilyapti.

Mahallalarda obodonlashtirish va kommunal tizimni modernizatsiyalash ishlari ham bajarildi. Ta’mirtalab ko‘chalar asfalt qilindi, elektr va kanalizatsiya tizimi yaxshilandi. Albatta, bu imkoniyatlar aholi, jumladan, keksalarning turmush sharoitini yaxshilash, umriga umr qo‘shishga xizmat qilyapti.

Suhbat so‘ngida Abbos ota Apponovdan ushbu tinch, fayzli va baxtli hayotimiz bardavom bo‘lishi uchun bizdan nima talab etiladi, deya so‘radim. Ota nurli ko‘zlarini bir nuqtaga tikib, o‘yga cho‘mdi: “Doimo sergak bo‘lish, dunyoda kechayotgan voqealarni to‘g‘ri anglay bilish kerak. Quvonarlisi shuki, bugungi yoshlarimiz bu masalada ancha ilg‘or. Yurtimiz rivojining shunday nurafshon kunlarini ko‘rish saodati nasib etdi. Buning uchun Yaratganga behisob shukr qilaman”.

Bahor XIDIROVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Rishton tumani “Oq yer” mahalla fuqarolar yig‘inida umrguzaronlik qilayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Mirzaahmad ota Sulaymonov bu yil 98 bahorni qarshi oldi. Tabarruk insonni yo‘qlab, xonadonga kirib borar ekanmiz, nigohimiz peshayvonda o‘tirgan mo‘ysafidga tushdi. Bir dam to‘xtab qoldik. Asr bilan yuzlashgan otaxon nigohidagi iztirob urush yillari va undan keyingi hayot mashaqqatlarini yodga soladi.

IZZAT-U IKROMDAN YASHASHGA MUHABBATIMIZ BALAND

Suhbat asnosida boboning ko‘z oldida temir tishli tanklar, yopirilib kelayotgan dushman o‘qiga qarshi kurashda jon olib, jon berayotgan quroldosh do‘stlari gavdalandi. Hammasi o‘ktam, ko‘ngli orzu-umidga to‘la edi. Mash’um urush barchasini sarobga aylantirdi. Otaxon shularni eslab, yoshlangan ko‘zlarini artdi. Bugungi dorilamon kunlar, tinchlik-totuvlikka shukrona aytib, ko‘ngli yorishdi.

Xotira va qadrlash kuni oldidan otaxonni yo‘qlash, hamsuhbat bo‘lish istagidagilarning qadami uzilgani yo‘q. Mo‘ysafid urush yillarining suronli kunlari haqida so‘zlab beradi, mehmonlarni alqab, duo qiladi.

— Harbiy komissariatga chaqirilganimda 18 yoshda edim, — deya xotirlaydi bobo. — Dastlab Olmaota shahrida zaxiradagi 118-polkda xizmat o‘tadik. Bu yerda jangda harakatlanish, himoyalanish, hujumga o‘tish, okop va transheya qazish, qurollardan foydalanish amaliyoti bilan tanishdik. 1945-yil ko‘klamida ikkinchi Ukraina fronti tarkibidagi 206-polkda ilk bor dushman bilan yuzma-yuz bo‘ldik. O‘sha kunlar hamon yodimda. Jang qilgani qo‘limizda qurol yo‘q edi. Faqat ertasi kuni o‘q-dori olib kelindi. Og‘ir jang boshlandi. Ko‘z o‘ngimda uch xizmatdoshim og‘ir yaralanib, dala gospitaliga jo‘natildi. Dushman snaryadi portlashidan so‘ng boshimdan jarohat oldim. Qon to‘xtamay oqardi. Jarohatimni ko‘rgan hamshira “Omadingiz bor ekan, o‘lishingizga sal qolibdi”, deya malham bog‘lab, qonni to‘xtatdi. Keyin xandaqlar orqali jangga borishimni tayinladi. “Xo‘p”, deb yana urush oloviga sho‘ng‘idim.

G‘alaba haqidagi xabarni Chexoslavakiya o‘rmonida eshitdi. Ammo urush olovi Mirzaahmad bobo uchun bu bilan yakun topmadi. Jangchilar eshelonlarga o‘tirib, rus-yapon fronti sari yo‘lga chiqdi. Garchi bu urushda qatnashmagan bo‘lsa-da, mamlakat sarhadini himoyalashda namuna ko‘rsatdi.

1956-yilda yaqinlari bag‘riga qaytib, jamoa xo‘jaligida ishladi. Tirishqoqligi, harakatchanligini inobatga olib, Mirzaahmad boboni ichki ishlar organlarining ikki yillik kursida o‘qish uchun yuborishdi. O‘qishdan so‘ng u faoliyatini hozirgi So‘x tumanida boshladi. Shu yerda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Turg‘unoy aya bilan tanishib, oila qurdi. Besh farzandini tarbiyalab elga qo‘shdi. Bugun o‘nlab nevara, chevara va evaralar davrasida umrguzaronlik qilyapti.

— Bugungi dorilamon kunlarning qadriga yetish, tinchlikni asrab-avaylash kerak, — deydi otaxon. — Qarang, hamma sharoit, hamma narsa bor. Biror joyga boraman, desangiz, piyoda yurmaysiz. Dasturxonimiz to‘kin-sochin. Bir burda nonga zor bo‘lib, jon berganlarni ko‘rganmiz. Bugungidek kunlar hech qachon bo‘lmagan. Yurt keksalarini e’zozlash, izzat-hurmat ko‘rsatish, qadrlash, xotirlash yo‘lidagi ishlar hayotga muhabbatimizni oshiryapti.

Urushning tirik afsonasi bo‘lgan Mirzaahmad ota hali bardam. Keksalik sabab erkin harakatlanishga bir oz qiynalsa-da, xotirasi tiniq, so‘zga chechan. Ochiqlik va samimiyat bilan bir piyola choyga taklif etishni kanda qilmaydi.

Ikkinchi jahon urushi tugaganiga yetmish to‘qqiz yil to‘ldi, lekin hali-hanuz bu ofat qoldirgan dard-u alam, qayg‘u unutilgani yo‘q. Olovli yillar tirik guvohlarining hayot yo‘li haqidagi hikoyasini tinglab, farovon hayot, tinchlik-totuvlik hamma narsadan ustun ekanini anglab olasiz, qadrlaysiz kishi.

Ayni kunda Farg‘ona viloyatida 11 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi umrguzaronlik qilyapti. 9-may — Xotira va qadrlash kuni arafasida ularning har biriga alohida izzat-hurmat ko‘rsatib, e’zozlanmoqda. Chunki bunday ulug‘ yoshli kishilar shukronasi, duosida hayot haqiqati mujassam.

1941-1945-yillardagi urush davrida Farg‘ona viloyatidan 150 mingdan ortiq kishi Ikkinchi jahon urushiga safarbar qilingan. Ulardan 54 ming 981 nafari halok bo‘lgan, ayrimlari bedarak yo‘qolgan. 14 ming 912 nafar farg‘onalik jangda ko‘rsatgan mardligi va jasorati uchun turli orden-medallar bilan taqdirlangan.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

ILMIY-TADQIQOT MUASSASALARIDA

> Sohada 30 dan ortiq yosh olim tayyorladim. Maktab yaratdim, desam nokamtarlik bo‘ladi. Shogirdlarimning har biri sohaning bir bo‘lagini rivojlantirmoqda. Men doimo ular bilan birgaman, yordam beraman, yo‘l ko‘rsataman.

“HAR QANDAY MUSHKUL ISH AQL EGALARI TUFAYLI ISLOH QILINUR”

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo instituti o‘simlik va hayvonot olamida olingan tabiiy birikmalar, biologik faol moddalar kimyosi bo‘yicha yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasasidir. Institut direktori, kimyo fanlari doktori, akademik, fan arbobi Abbosxon TO‘RAYEV bilan suhbatimiz ilm-fanga e’tibor hamda institutda bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari xususida bo‘ldi.

— Yurtimizda ancha yillar ilmga e’tibor susayib, butun boshli akademiklar maktabi deyarli yo‘qolib keta boshlagandi, — deydi Abbosxon To‘rayev. — O‘zFA tizimidagi yuqori salohiyatli, dunyoda o‘z mavqeyiga ega ilmiy institutlar boshqa tashkilotlar tasarrufiga o‘tib ketib, ba’zilari faoliyatini butkul to‘xtatgandi. Tabiiyki, bu holatlar ilm-fan rivojida keskin uzilishlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, izlanishlar natijalari, ularni amaliyotda qo‘llash, tarmoq, sohalarga tatbiq etish bo‘yicha murakkabliklar yuzaga keldi.

2017-yilga kelib ayon bo‘ldiki, Fanlar akademiyasi institutlari moddiy rag‘batlantirilmasa, ularga kerakli asbob-uskunalar, reaktivlar olib berilmasa, ilmiy izlanishlar darajasini ko‘tarib bo‘lmaydi. Agar ilmiy izlanishlarni jahon standartlariga javob bermaydigan asbob-uskunalar yordamida qilsangiz, natijaga xalqaro miqyosda ishonch bildirilmaydi. Ilmiy jurnallar mavzuga doir ishlarni chop etishga ikkilanadi.

Keyingi yillarda ilmga qaratilgan e’tibor institutlar faoliyati jonlanishiga turtki bo‘ldi. Ilmiy laboratoriyalar eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Bu e’tibordan bizning institut ham chetda qolmadi. Azaldan rentgenoskopiya bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan muassasamizga har birining narxi 500 ming AQSH dollaridan yuqori ikkita rentgen qurilmasi olindi. Bugungi kun talabiga javob beradigan shart-sharoitda bajarilayotgan ilmiy izlanishlar saviyasi jahon standartlariga tenglashtirildi.

Yaqin-yaqingacha Fanlar akademiyasining asosiy tarkibi nafaqadagi olimlardan iborat, ilm ahliga ajratilayotgan mablag‘ talabga javob bermas edi. Olimlarning maoshi endilikda 3 barobar oshirildi. Fan nomzodi uchun 30 foiz, fan doktorlari uchun 60 foizgacha ustama belgilandi. Bu yoshlarning ilmga intilishini kuchaytirdi. Ayni paytda institut ilmiy jamoasining 58 foizini 40 yoshdan oshmagan yosh xodimlar tashkil etmoqda. Ularning ilmiy saviyasi yuqori, dunyoda bo‘layotgan ishlarni to‘la-to‘kis tahlil qilib, yangilik yarata oladi. Bugun yoshlarning ilmiy natijalari dunyo tan oladigan jurnallarda chop etilmoqda.

Bizni mamnun qiladigan yana bir holat yoshlarimizning xorijiy tillarni puxta bilishidir. Chet davlatlarga safarlar, stajirovkalarga borib, o‘sha yerdan yangiliklarni o‘rganish, yangi yo‘nalish yaratib, yurtimizda ish boshlash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Besh-olti yil oldin talabgorlarni “Bizning institutga keling, ilmiy ish qiling”, deb taklif qilgan bo‘lsak, hozir ular tanlov asosida ishga olinmoqda. Doktoranturada o‘qish istagida bitta joyga o‘nlab talabgor hujjat topshiryapti, kurashyapti. Bu esa soha kelajagi uchun eng yaxshi kadrlarni saralash imkoniyatini yaratmoqda. Yosh olimlarimiz shijoat bilan yangi ilmiy yo‘nalishlar ochyapti. Masalan, kimyo fanlari doktori, yosh olim Baxtiyor Muhitdinov saraton kasalligiga qarshi yangi original dori yaratish ustida samarali ilmiy izlanish qilayotir. Ayni paytda mazkur kasallikni davolashda keng qo‘llanadigan doksorubitsin dorisi asosida salbiy ta’siri 100 marotaba kamaytirilgan va saraton hujayrasiga yetib boruvchi yangi, samarali dori yaratish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bugungi kunda ushbu dorining klinikoldi sinovlari tugallanib, klinik sinovlarga ruxsat olish uchun kerakli ilmiy hujjatlar tayyorlanmoqda.

Yana bir misol, institutimizning yosh olimi Ulug‘bek Tog‘ayev respublikamizda mavjud termitlar asosida iz feromonini yaratish ustida keng qamrovli izlanishlar qilmoqda. Bu izlanishlarga Hindiston, Italiya va boshqa xorijiy mamlakatlar olimlari katta qiziqish bildirgan.

— Shu o‘rinda hamkorlik aloqalari xususida to‘xtalsangiz...

— Agar davlatlar o‘rtasida xalqaro hamkorlik rivojlanmasa, institutlarning o‘zaro aloqasi samara bermaydi. Keyingi yillarda yo‘lga qo‘yilgan xalqaro hamkorlik o‘z mahsulini berdi. Sohada bir qancha xalqaro ilmiy izlanishlar qilindi.

Tadqiqot ishlarini olib borayotgan yigit-qizlarni xorijga yubordik. Yosh olimlarimiz Belarus, Rossiya, Xitoy Fanlar akademiyasi institutlarida tahsil oldi. O‘zga mamlakatlarda ilm-fan yangiliklari, olimlar uchun yaratilgan shart-sharoitni o‘rganib, yurtimizda qo‘llash imkoni paydo bo‘ldi. Shuningdek, ularning xodimlari kelib, bizdagi izlanishlar bilan tanishdi, institutlarimizda o‘qidi, o‘rgandi.

Muassasamizga Xitoy Fanlar akademiyasidan bir qator tadqiqotchilar keldi. Ularning ikki nafari falsafa bo‘yicha fan doktori bo‘ldi. Xitoylik bir olim bizning kengashda fan doktori ilmiy darajasini himoya qildi. Hozir Shinjon fan va texnologiyalar qo‘mitasi raisi sifatida faoliyat yurityapti.

Institutda o‘simlik, hayvonot olamidan biologik faol birikmalarni ajratish, ularning tuzilishi, biologik faolligini o‘rganish bo‘yicha qator yangi ilmiy izlanishlar bajarilmoqda.

Shanxayda Xitoy Fanlar akademiyasining Tibbiy materiallar instituti mavjud. Mazkur institut bilan uzoq yillardan buyon hamkorlik qilamiz. Kadr almashamiz, ilmiy natijalarni birga muhokama qilamiz va hamkorlikda ishlaymiz.

Ana shu hamkorlik doirasida yangi ilmiy yo‘nalish — saraton hujayrasiga yetib borib, uni yo‘q qiluvchi dori-darmon yaratish bo‘yicha izlanishlar qilinyapti. Bir paytning o‘zida janubiy koreyalik olimlar bilan ham nanotexnologiyani qo‘llagan holda shunday ilmiy izlanishlar davom etyapti. Hozirgacha juda muvaffaqiyatli natijalarga erishildi. O‘ylaymanki, yaqin kelajakda samaradorligi yuqori bo‘lgan qator yangi dori-darmonlar yaratilishi mumkin.

2015-yilda grippga qarshi “Rutan” dorisi yaratilgan edi. COVID-19 pandemiyasi paytida Xitoy Fanlar akademiyasi institutlari bilan birgalikda bu dorining koronavirusga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi tekshirildi. Natijaga ko‘ra, “Rutan” preparati koronavirusning ikki muhim ferment tizimiga ta’sir ko‘rsata olishi, uning ko‘payishini to‘xtatishi mumkinligi aniqlandi. Shundan so‘ng preparat koronavirusga qarshi klinik sinovdan o‘tkazildi. Ham gripp, ham koronavirusni davolashga tavsiya etilgan. U bir paytning o‘zida insonning immun tizimiga ta’sir etib, viruslarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, virusni jilovlash xususiyatiga ega.

Gerpes, xlamidiya infeksiyasi, gepatit, OITSga qarshi, qon to‘xtatuvchi, yaralarni tez bitirish xususiyatiga ega ko‘plab dori-darmonlar ayni paytda ishlab chiqarishga tatbiq etilgan. Ular tibbiyotda qo‘llanilib, keng miqyosda ishlab chiqarilmoqda. Buni xalqaro hamkorlikning ilmiy natijasi, deyish mumkin.

Ilmda bir-ikki yilda samaraga erishish qiyin. Buning uchun yillar kerak. Keyingi yillarda institutimizda yangi dori-darmon yaratish bo‘yicha amaliy ishlar qilinmoqda. Mana shu ishlar natijasi o‘laroq, 20 ga yaqin yangi dori yaratildi. Bularning 10 dan ortig‘i amaliyotda qo‘llanilyapti.

> Institut olimlari yaratgan “Biosolvent” preparati qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan. U yerga sepilganda erimaydigan tuzlarni eritib, drenajdan olib chiqib ketadi. Mahsulot patentlangan. Yangi korxona ochib, mahsulot ishlab chiqarilishini yo‘lga qo‘ydik.

Respublikamiz farmsanoatiga tegishli dori ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan virusga qarshi, gepatoprotektorlik xususiyatiga ega “Ragosin”, gerpesga qarshi “Megosin”, viruslarga qarshi dori substansiyasi sifatida biz juda ko‘p miqdorda Rossiyaga eksport qiladigan “Gossipol” preparati, qon to‘xtatuvchi dorilar — “Inebrin”, “Lagoden”, immun tizimini modullashtiradigan “Timotin”, silga qarshi “Biomayrin” dorisi ana shular jumlasidandir.

Odatda silga qarshi dorilar organizmga kirganda jigarga nojo‘ya ta’sir ko‘rsatadi. “Biomayrin”ning nojo‘ya ta’siri kam.

Bundan tashqari, “Biokor” dorisini (saraton profilaktikasida ishlatiladi) ham amaliyotda qo‘llashga ruxsat olingan.

— Hozir shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda erishilgan natijalar yetarli deb o‘ylaysizmi?

— Bioorganik kimyo institutining asosiy vazifasi o‘simlik, hayvonot olamida mavjud biologik faol birikmalar funksiyasini o‘rganishdan iborat. Qishloq xo‘jaligi uchun yangi biostimulyator, yerning meliorativ holatini yaxshilash uchun maxsus preparatlar, tibbiyotda yangi original dori-darmon yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va boshqa ko‘plab sohalarda ilmiy ishlar qilinmoqda. Qishloq xo‘jaligi sohasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi. Birinchi marotaba sho‘rlangan tuproqning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida sho‘rni yuvish samaradorligini oshirish uchun yangi preparat yaratildi va ishlab chiqarishga tatbiq etildi. Izlanishlar davom etmoqda. O‘zbek olimlarining saviyasi, darajasi, ilmga to‘g‘ri yondashishi, yaratilgan ilmiy maktablar hech qaysi davlatnikidan kam deb o‘ylamayman. Keyingi yillarda ilm-fanga e’tibor, salohiyati tiklangan ilmiy maktablar hozirgi yosh olimlarning kashfiyotlariga zamin bo‘lmoqda.

— Sohada qanday muammolar bor?

— Birdan bir muammo yaratilgan mahsulotni amaliyotda qo‘llash mas’uliyati. Xorijiy mamlakatlarda butunlay boshqacha. Misol uchun, siz dori yaratdingiz, uni har tomonlama o‘rgandingiz. Faqatgina ishlab chiqarish qoldi. Shu o‘rinda bir kompaniya keladi-da, loyihani sizdan sotib oladi va ishlab chiqaradi. Olingan daromadning muayyan qismi kompaniyaga, bir qismi institutga beriladi. Bu sizning korxonangizning bundan keyingi taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Kelajakda shunday kompaniyalar sizning qo‘lingizdagi mahsulotni olib, “Bo‘ldi, bu yog‘iga siz ovora bo‘lmang, uni amaliyotga biz kiritamiz, siz ilm bilan shug‘ullanavering” deydigan payt keladi. Ilmiy natijani amaliyotga kiritish ilm ahlining o‘ziga yuklanishi biroz samarasiz natija beradi. Yaratilgan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish ilm ahliga qiyinlik qiladi.

Yana bir muhim yangilik. Kelgusida suv tanqisligiga duch kelinishi ayon haqiqat bo‘lib bormoqda. Institut olimlari yaratgan “Biosolvent” preparati qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan. U yerga sepilganda erimaydigan tuzlarni eritib, drenajdan olib chiqib ketadi. Mahsulot patentlangan. Yangi korxona ochib, mahsulot ishlab chiqarilishini yo‘lga qo‘ydik. Lekin sotishni eplay olmayapmiz. Bir gektarga 700 ming so‘mlik mahsulot ketadi. Fermer yerni yuvadigan paytda uni sotib olishga imkoniyati bo‘lmaydi. Hatto klasterlar bilan ham gaplashdik. Natija bo‘lmadi. Bu preparatning samaradorligi juda katta. Sho‘r, hech qanday hosil bermaydigan yerda ushbu preparat ishlatilganda paxtadan 30 sentner hosil olingan. Tuzli, ekin unmaydigan joyda undan foydalanilganidan so‘ng mosh ekilgan va hosil olingan. Bunday katta tajribalar ko‘p o‘tkazildi va ishlanmalarning samaradorligi isbotlandi. Lekin baribir sotishga kelganda biz qiynalamiz.

Institut olimlari tomonidan qator yillar davomida g‘o‘za zararkunandalariga qarshi kurashda feromon tutqichlar orqali monitoring qilish usuli ishlab chiqildi. Buning uchun moda zararkunandalarning urchish davridagi o‘zidan chiqaradigan hidi feromonlari tarkibi, kimyoviy tuzilishi to‘la o‘rganildi va uni kimyoviy sintez qilish usullari ishlab chiqildi. 2000-yillarda bir yilda institutda bir million dona feromon tutqich ishlab chiqilgan va paxtachilik xo‘jaliklari to‘la ta’minlangan. Lekin bugungi kunda uni sotish qiyin bo‘lib qoldi.

Kimyo fani rivoji faqat o‘g‘it bilan bog‘liq emas. Kimyo-biologiya fanining oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, geologiya va boshqa ko‘plab sohalarda o‘z o‘rni bor. Hozirgi ilm ahli oldida turgan vazifa ham shu — amaliyotda o‘z o‘rnini topish. Ana shundagina muayyan yutuqlarga erishamiz va izlanishlarimiz orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga hissa qo‘shamiz.

— O‘tgan yil so‘ngida Fanlar akademiyasining 80 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Shu sana munosabati bilan qator olimlar davlatimiz e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Jumladan, siz ham O‘zbekiston fan arbobi unvoniga munosib ko‘rildingiz. Bu e’tirof siz uchun qanday mohiyat kasb etdi?

— Davlatimiz shunday e’tirofga loyiq topganiga rahmat. Inson o‘z mehnatini baholay olmaydi. Katta unvonga yarashadigan ishlarni qilib qo‘ydim, deb aytolmayman. Lekin e’tibordan minnatdorman. Ilm-fan rivojiga qo‘limdan kelgancha hissa qo‘shishga, yuksaltirishga harakat qildim. Bundan keyin ham baholi qudrat shu jarayon ichidaman.

Sohada 30 dan ortiq yosh olim tayyorladim. Maktab yaratdim, desam nokamtarlik bo‘ladi. Shogirdlarimning har biri sohaning bir bo‘lagini rivojlantirmoqda. Men doimo ular bilan birgaman, yordam beraman, yo‘l ko‘rsataman.

Muallifligimda tibbiyot amaliyoti uchun 10 dan ortiq mahsulot yaratildi, ishlab chiqarilyapti. Ulardan biri — ultratovushli tashxis paytida qo‘llaniladigan gel. Qon to‘xtatuvchi gemogubka, “Timogel” dorisi va qator xirurgik jihozlar ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgan.

“Timogel” qand kasalligida paydo bo‘ladigan yaralarni tuzatishda qo‘llaniladi.

Endovoskulyar xirurgiyada ishlatish uchun embollovchi mahsulot yaratildi, tibbiyotda ishlatishga ruxsat olindi va uni keng miqyosda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda polisaxaridlarni tibbiyot amaliyotida qo‘llash bo‘yicha muhim fundamental izlanishlar qilinmoqda. Ayon bo‘ldiki, tarmoqlangan polisaxaridlar organizmga kirganda organizm ularni yot modda sifatida qabul qiladi va ushbu mahsulotni yo‘q qilish uchun immun tizimidagi bor kuchini ishlatadi. Natijada T-xelper hujayralari ko‘plab ishlab chiqariladi va bu hujayralar bir vaqtning o‘zida saraton hujayralari o‘sishi to‘xtashini ta’minlaydi. Mana shu xulosaga asoslanib, hozir saraton kasalligi profilaktikasi uchun “Beta glyukan” nomi bilan biologik faol qo‘shimcha yaratildi va amaliyotda qo‘llash uchun ruxsat olindi. Saratonga qarshi yangi makromolekulyar tabiatli, kasal organga yetib borish xususiyatiga ega dori yaratish ustida fundamental izlanishlar qilinmoqda. Ushbu yo‘nalishda qator yangi dorilar yaratildi va ularning klinikoldi sinov tekshiruvlari tugallanmoqda.

Mamlakatimizda ilm-fan rivojiga qaratilayotgan e’tibor, albatta, o‘z natijasini bermay qolmaydi. Zero, ulug‘ alloma az-Zamaxshariy aytganidek, “Har qanday mushkul ish aql egalari tufayli isloh qilinur”. Oldimizga qo‘yilgan vazifalar ko‘p. Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrga hamohang izlanish, insonlar hayotini yangi o‘zanga burib yuboruvchi kashfiyotlar qilish, salohiyatini xalqaro maydonda namoyish eta olish mas’uliyati bizni yangi marralar sari undashiga umid qilib qolaman.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

Har yili Xotira va qadrlash kunini nishonlash asnosida o‘tganlarni yod etish, faxriylarni e’zozlash bo‘yicha ezgu amallarimiz, qadriyatlarimiz sayqallanadi, ohorlanadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 9-may, 89-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Xotira — uyg‘onsa go‘zal

E’ZOZ DILLARNI NURAFSHON ETADI

Habib SIDDIQ,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,
“Shuhrat” medali sohibi

Inson e’tibor va qadr topayotgan, o‘tganlar yod etilib, nuroniylar e’zozlangan yurtdan fayz-u baraka, farovonlik, hamjihatlik arimasligi asrlar sinovidan o‘tgan haqiqat.

Elimizda yoshi ulug‘ insonlar hamisha hurmat va e’tiborda bo‘lib kelgan. Chunki xonadonlarimiz fayz-u tarovati, ko‘ngillarimiz to‘qligi, ruhimiz balandligi ular bilan. Qalbimizning qo‘ri, davralarimizning to‘ri keksalarga atalgan. Xayrli ishlarni boshlashda ularning duosini olamiz.

Ikkinchi jahon urushida qatnashgan va front ortida mehnat qilgan ota-bobolarimiz, ona-momolarimiz fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba va tinch-farovon hayotimizni qayta tiklashga munosib hissa qo‘shgan, 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash, yoshi ulug‘ insonlar, birinchi navbatda, yolg‘iz qariyalar va nogironlarga ijtimoiy va maishiy xizmatlar ko‘rsatish, ularni farovon va munosib turmush sharoitlari bilan ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz farmoniga muvofiq, 9-may — Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi, fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 79 yilligi munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 20 million so‘m miqdorida bir martalik pul mukofoti belgilangani, u tantanali hamda bayramona vaziyatda topshirilishi ko‘zda tutilgani ham ularga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik va e’tibor namunasidir.

Avvalo, faxriylar xalqimiz tinchligi va osoyishtaligi, sarhadlarimiz daxlsizligi, yurtimiz ravnaqi va farzandlar kamoloti yo‘lidagi jasorati va fidokorona mehnati bois, ana shunday hurmat-u e’zozga munosibdir. Ularning katta hayotiy tajribalarga asoslangan pand-u nasihatlari, o‘gitlari umr yo‘llarimizda asqatadigan xazina. Shu bois, har birimiz keksalarga doimo mehr-u oqibat ko‘rsatishga burchlimiz. Bizning bu boradagi ishlarimiz ortimizdan kelayotgan avlod uchun saboq bo‘lishini ham unutmasligimiz lozim. Fariduddin Attorning “Keksalarni etsang aziz-u hurmat, Seni ham keksaygach, etishar izzat” degan satrlari ertangi kunidan umidvor har qanday kimsaning qalbini yoshi ulug‘larga hurmat-ehtirom, izzat-ikrom ko‘rsatishga moyil qilib qo‘yadi. Ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlik yoshi ulug‘ yurtdoshlarimizning ruhini ko‘taradi, ulardagi shukronalik tuyg‘usini orttiradi va yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘ladi.

Shu bois, yurtga tinchlik, elga farovonlik, dasturxonlarga to‘kinlik tilab duoda bo‘layotgan faxriylarni har qancha qadrlasak, e’zozlasak arziydi. E’zoz dillarni nurafshon etadi. Elda e’zoz topayotgan faxriylarning e’tibor va g‘amxo‘rlikdan ko‘ngillari tog‘dek ko‘tarilishi, umrlariga umr qo‘shilishi ham bor gap. Mamlakatimizda o‘rtacha umr ko‘rish darajasi o‘sgani, avvalo, istiqlol davrida, ayniqsa, keyingi olti-yetti yilda xalqimiz turmush sifati tobora ortib borayotgani, yurtdoshlarimiz yaxshi niyat, ertangi kunimizga katta ishonch bilan yashayotgani yurtdagi ozodlik va obodlik natijasidir.

Bu muqaddas ayyomni yuksak saviyada nishonlash zamirida Ikkinchi jahon urushining har bir qatnashchisi, front orti mehnat faxriylari hamda mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasi oldida hurmat bajo keltirish, yurtimizda mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, bag‘rikenglik va xayr-saxovat muhitini yanada mustahkamlash, yosh avlodni milliy an’analarimizga sadoqat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida kamol toptirishdek ezgu maqsadlar mujassam.

Yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz va shukronalik ruhida tarbiyalash jarayonida ham hayotning achchiq-chuchugini totgan keksalar bilan o‘tkazilayotgan uchrashuv va muloqotlar muhim omil bo‘ladi. Zero, o‘zbekning o‘zligini namoyon etuvchi ko‘p asrlik qadriyat, urf-odat va udumlarimizning avloddan avlodga o‘tib borishida keksalarning xizmatlari beqiyos.

Elimizning “Yurting tinch — sen tinch” degan hikmati bor. Darhaqiqat, dunyo xaritasiga nazar tashlasangiz, kurrayi zaminning qaysidir joyida suv toshqini, shamol va bo‘ronlar, o‘rmonlar yonayotgani, qattiq zilzilalar, qayerdadir urush, terrorchilik va hokazo balo-ofatlar ro‘y berayotganiga guvoh bo‘lasiz. Bularning oqibatida qanchadan qancha odamlar — yosh-u qari birdek talafot ko‘rmoqda. Atrofimizda ro‘y berayotgan bunday hodisa va voqealar bizni yurtimizga, tinchligimizga, xalqimiz farovonligiga teran ko‘z bilan qarashga, tafakkur yuritishga undaydi.

Har yili Xotira va qadrlash kunini nishonlash asnosida o‘tganlarni yod etish, faxriylarni e’zozlash bo‘yicha ezgu amallarimiz, qadriyatlarimiz sayqallanadi, ohorlanadi. Inson qadr-qimmati har narsadan ustunligi shiorimizga aylangan yangi O‘zbekistonda bu boradagi ishlarimiz xalqimizning ko‘tarinki kayfiyati, faol hayot tarziga mos ravishda har qachongidan yuksak saviyada va samarali o‘tishidan darak bermoqda.

“Yomg‘ir bilan yer, duo bilan el ko‘karar” deb bejiz aytilmagan. Ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlikdan mamnun pir-u badavlat keksalarning istiqlolimiz abadiy, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, hayotimiz farovon bo‘lishini tilab duoda ekani guvohi bo‘lmoqdamiz.

Zero, ezgu niyatlar bilan qilingan duolar ijobat bo‘lg‘usidir.

TINCHLIKNI ASRASH BOSH BURCHIMIZ

Jahonni qalqitgan, insoniyat boshiga eng og‘riqli musibatlar solgan Ikkinchi jahon urushi asoratlari hali-hanuz odamzod yodidan ko‘tarilgani yo‘q. Urushning nafasi erkak-ayol, yosh-qari — barchaga birdek ta’sirini o‘tkazdi. Janggohlarda qon kechib yurgan bo‘lmasa ham front ortida tortgan azobini, yo‘qotgan insonlarini hali-hanuz unutmay yashayotgan piskentlik Muhayyo aya Oqilova biz bilan xotiralarini o‘rtoqlashdi.

* * *

— Yaxshi eslayman: 5-sinfda o‘qib yurgan vaqtlarim edi. Bir kuni maktabdan qaytsam, eski supaning ustida otam bilan akam suhbatlashib o‘tirganini ko‘rdim. Bu holat meni ajablantirdi. Sababi, ular bunday vaqtda uyda bo‘lmas, ikkovini ham erta azonda yoki kech oqshomdagina ko‘rish mumkin edi. Shunda ham ust-boshi abgor holatda kelib, choy ichar-ichmas uxlab qolishardi. Bugun esa…

Otam akamga pand-nasihat qilar, akam esa xavotir olmasliklarini so‘rardi. Ichkari kirsam, o‘gay onam bir burchakda ro‘molini tishlab yig‘lab o‘tiribdi. Sababini tushungandek bo‘ldim. Maktabda ham ba’zi sinfdoshlarimning akasi yoki boshqa qarindoshini urushga olib ketishgan edi. O‘qituvchimiz ham o‘sha kuni dars o‘tmadi. Faqat yaqini frontga olib ketilayotgan bolalarni bag‘riga mahkam bosib, uyga qo‘yib yuborardi. Ustozni ham dars tugamasdan direktor xonasiga chaqirishdi. U ketdi. Keyin bildik: muallimamizning turmush o‘rtog‘i ham urushga chaqirilgan ekan. Sinfdoshlarim bir-biri bilan pichirlashib, urushning nafasi allaqachon bu tuproqlarga yetib kelganini aytardi. Demak, akamga ham chaqiruv qog‘ozi kelgan.

Akam urushga ketdi. Ortidan kenja akam ham yelkasiga tugunini ortmoqlab jo‘nadi. Otamni esa front ortiga ishchi batalyoniga yuborishdi.

Kunduzi maktabga borib, so‘ng g‘o‘zapoya chopishga chiqardik. Ba’zan maktabni ham yig‘ishtirib, faqat dalada ishlardik. Otam va akalarim ketganidan so‘ng to‘rt opa-singil va o‘gay onam qoldik. Birgina sigirimiz bor. Makkajo‘xori ekib, donini un qilib, zog‘ora non yopib yerdik. Sog‘ilgan sutni maktabga olib borib, arzimagan pulga sotardim. Sutning puliga bozorlik qilib, uyga qaytardim. So‘ng ishlagani dalaga ketardim. Ishga kechiksak, qamchi bilan savalashardi. 1944-yil oxirida katta akam yarador bo‘lib qaytdi. Undan so‘ng kichik akam va otam keldi.

Urushdan keyin Oxunboboyev nomidagi texnikumga o‘qishga hujjat topshirdim. Bir yarim kunda eshak-aravada otam bilan texnikumga yetib bordik. O‘qishni boshladim. U yerda 400 gramm non berilardi. Hatto nonni yo‘qotib qo‘ygan vaqtlarim ham bo‘lgan. Shundan so‘ng do‘konda farroshlik qildim. Evaziga bir burda non berardi. Uyimizdan makkajo‘xori tolqoni kelardi. Shu tolqonni yeb, texnikumni bitirganman.

Urushdan so‘ng bir tomondan ochlik hukmronlik qilsa, boshqa tomondan turli yuqumli kasalliklar avjiga chiqdi. Feldsher bo‘lib ishladim. 1950-yili Toshkent tibbiyot institutiga o‘qishga kirdim. Ham o‘qib, ham hamshiralik qilardim. 1956-yili o‘qishni bitirib, Piskentga bordim. O‘sha vaqtlari na kechasi va na kunduzi tinim bor edi. Sababi xodimlar yetishmasdi.

Bugun o‘sha vaqtdagi musibatlarni eslab, ko‘zimga yosh qalqiydi. Urushda g‘oliblar bo‘lmaydi, degan gap bor. Urush yillari qo‘shni xonadonlarda ko‘tarilgan faryodlar badalini hech narsa bilan to‘lab bo‘lmaydi. Bu insoniyat tarixining og‘riqli nuqtasi bo‘lib qoldi. Bu og‘riq bugun insoniyatga ko‘zgu vazifasini o‘tashi kerak.

Yurtimizning tinchligi umrboqiy bo‘lishini har safar duolarimda so‘rayman. Tinchlikning shukrini qilishimiz, to‘kinlikning qadriga yetishimiz kerak. Bugungi o‘zgarishlar zamirida inson qadri yotibdi.

Ozod yurtda yaqinlarimiz bilan sog‘-omon yashash biz uchun orzu edi. Xudoga shukr, niyatimizga yetdik. Kelajak avlod ham bugun kezib yurgan erkinlik nafasi abadiy bo‘lishiga hissa qo‘shishi kerak. Bu yurtning tuprog‘i uchun to‘kilgan qon, erki uchun berilgan jonlar yodi unutilmaydi.

* * *

Muhayyo aya bilan gurung davomida xayolimda Mahatma Gandining “Notinchlikda tinchlikka erishib bo‘lmaydi. Tinchlikni asrash qushqo‘nmas tikanaklar orasidan meva terish bilan barobar. Men bu masalaga qanchalik chuqur yondashsam, ich-ichimda qat’iy bir xulosa tug‘iladi — tinchlikni asrash bosh insoniy burchdir!” degan gaplari charx uradi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Sardor TOLLIBOYEV yozib oldi.

G'ALABA BOG'I

OSOYISHTA KUNLAR SHUKUHI

Pardagul RAZZOQOVA,
Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Beruniy tumani bo‘linmasi rahbari

Insoniyatga tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik kerak. Tinchligini yo‘qotgan oila ham, davlat ham aslo xotirjam bo‘lolmaydi. Milliy ma’naviy merosimiz ham azaldan tinchliksevarlik g‘oyasi asosiga qurilgan. Bunda tinchlikning qadriga yetish targ‘ib etiladi, urush esa qoralanadi.

Mamlakatimizda 9-mayning Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelinayotgani zamirida ham aynan ana shu ezgu g‘oya mujassam. Ushbu sanada fashizmga qarshi kurashda qatnashgan, Vatanimizni himoya qilish yo‘lida jon fido qilgan milliy qahramonlarimiz eslanadi. Bugun oramizda yashab, oilalarda farzand-u nabiralariga bosh-qosh bo‘lib yurgan otaxon-u onaxonlarimizga ehtirom ko‘rsatiladi.

Beruniy tumanida bu ezgu ishlarga yoshlar ham jalb qilinadi. Ular jang maydonida va front ortida xizmat qilgan bobo-momolarimiz holidan xabar olib, xotiralarini, pand-nasihatlarini qalbiga jo qilmoqda. Urush va mehnat faxriylari bilan suhbatlar uyushtirilib, milliy qadriyatlarimiz yoshlar ongiga singdirilmoqda. Urush qiyinchiliklaridan xulosa chiqarish va hozirgi tinch-osoyishta kunlarimiz uchun shukr qilish kerakligi anglatilmoqda.

1941-1945-yillarda bashariyat boshiga mislsiz kulfat yog‘dirgan Ikkinchi jahon urushida beruniyliklar ham mardona jang qilib, qahramonlik namunasi ko‘rsatdi. Tumandagi “Sarkop” ovul fuqarolar yig‘inida yashagan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi O‘rozboy Jumaniyazovni xotirlash maqsadida u yashagan xonadonga bordik. Urush qahramonining jiyani Jabborbergan aka otasi va amakisi haqida yoshlarga so‘zlab berdi:

— 1941-yili avval otam Bobojon Jumaniyazov, 1942-yil sentabrda amakim

O‘rozboy Jumaniyazov ko‘ngillilar safida frontga jo‘nagan. Amakim 1943-yili Ukrainaning Rovi qishlog‘i uchun kechgan ayovsiz jangda qahramonlik ko‘rsatib, o‘nlab fashistni yer tishlatgan. O‘shanda olgan jarohati tufayli olamdan o‘tgan. Uning xotirasi abadiylashtirilib, tumanimizdagi 48-maktabga nomi berilgan, byusti o‘rnatilgan. Shuningdek, qo‘shni mahalla hamda ko‘chalardan biri ham uning nomi bilan ataladi. Har yili Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan o‘tadigan tadbirda O‘rozboy Jumaniyazov nomi tilga olinganida faxrlanamiz.

Beruniy tumanidagi “O‘rozboy Jumaniyazov” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yashovchi, Ikkinchi jahon urushi yillari front ortida mehnat qilgan Aysanam momo Masharipova xonadonida ham bo‘lib, holidan xabar oldik. Onaxon urush yillarini xotirlab, o‘sha davr mashaqqati-yu qiyinchiliklari haqida gapirib berdi. Bugungi tinch-omon kunlarning qadriga yetish, asrab-avaylash uchun yoshlar vatanparvar bo‘lib voyaga yetishi borasida nasihat qildi.

Onaxon davlatimizning keksa avlod vakillariga e’tibori, hokimlar, mahalla raislari, yoshlar muntazam kelib, holidan xabar olayotganidan mamnun. Bayram arafasida mahalla ahli uy-joyini tartibga keltirish, tomorqasini obodonlashtirishga yordam berganini aytib, uzoq duo qildi.

Fashizmga qarshi mardonavor kurashgan, og‘ir mashaqqat va musibatlarni boshdan kechirgan qahramonlar, xalqimizning erkin yashashi uchun o‘z jonini qurbon qilganlar xotirasi hamisha yodimizda saqlanadi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1551.
44034 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 02:40 Topshirildi — 03:10